

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



# VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning  
24-iyunidan chiqa  
boshlagan

2025-yil 7-mart  
№10 (3124)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

www.mv-vatanparvar.uz

8-mart~  
Xalqaro xotin-qizlar  
kuni



Ey ona, ey opa, ey singil, ey yor,  
Uying to'lib tursin baxtga, shodlikka.  
Sening quvonchingdan boshlanar bahor,  
Seni deb qo'l urur erlar mardlikka.

IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
vatanparvar-bt@mail.uz  
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi  
instagram.com/mudofaavazirligi  
youtube.com/c/uzarmiya

## Ijtimoiy himoya

Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilash, ularning oila a'zolari uchun zamonaviy turarjoy majmualarini barpo etish, tibbiy xizmat, sifatli ta'lim shart-sharoitlarini yaratib berish bugungi kunda davlatimiz siyosatidagi muhim yo'nalishlardan biridir.

Kuni kecha e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi Prezident qarorida ham bu yo'nalishda ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yorqin ifodasini ko'rish mumkin.

Qarorga kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, Qurolli Kuchlarda kontrakt bo'yicha xizmat qilayotgan, amaldagi sarf-xarajatlar doirasida turarjoy bilan ta'minlanmagan oddiy askar, serjant va ofitserlar tarkibidagi harbiy xizmatchilarga turarjoyi ijaraga olganlik bo'yicha har oylik pul kompensatsiyasi to'lovlari belgilandi.

Shu bilan birgalikda, oila a'zolari 3 kishi va undan ortiq bo'lgan taqdirda harbiy xizmatchilarning ushbu pul kompensatsiyasi miqdorlari 50 foizga oshirilishi qarorda belgilab qo'yildi.

Shuningdek, ijarada turayotgan harbiy xizmatchilarga turarjoyi ijaraga olganligi uchun to'lanadigan har oylik pul kompensatsiyasi miqdori 20 foizga oshiriladi. Ipoteka kreditlarini ajratish ko'rsatkichlari asosida uy-joy bilan ta'minlanadigan, kalendar hisobida 10 yildan ortiq harbiy xizmatni o'tagan harbiy xizmatchilarga turarjoy sotib olish yoki uy qurish uchun ipoteka krediti olinishida ajratiladigan dastlabki badal miqdori turarjoy qiymatining 35 foizi miqdorida belgilanadi.

## ISHONCHGA SADOQAT BILAN JAVOB QAYTADI

Sherzod SHARIPOV



### III darajali serjant Begali Abdullayev:

– O'zim Samarqand viloyatining Pastdarg'om tumanidanman. Hozirda Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida joylashgan harbiy qismda

xizmat qilib kelmoqdaman. Faoliyatimga 7 yil bo'ldi. Biz harbiylar sharaflari va mas'uliyatli xizmat burchimizni ado etish davomida davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan bizga bildirilayotgan yuksak ishonch va

g'amxo'rliklarni hamisha his etib, undan bahramand bo'lib kelmoqdami. Mazkur ishlarning izchil davomi sifatida Prezidentimiz tomonidan harbiy xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan navbatdagi qarori ham biz harbiylarni ruhlantirdi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Xususan, turarjoy ijarasi uchun to'lanadigan har oylik pul kompensatsiyasi miqdorining 20 foizga, oila a'zolari 3 kishi va undan ortiq bo'lgan taqdirda ushbu pul kompensatsiyasi miqdorlari 50 foizga oshirilgani, harbiy xizmatchilarga turarjoy sotib olishi uchun ipoteka krediti olinishida ajratiladigan dastlabki badal miqdori turarjoy qiymatining 35 foiz miqdoriga yetkazilgani bizni mamnun etdi. Albatta, buning uchun muhtaram Prezidentimizga rahmat aytamiz. Bizlarni bu yil ham e'tibordan chetda qoldirmagani xizmatimizga yanada shijoat va g'ayrat bag'ishlashi

shubhasiz. Kelajakda oilamiz bilan qarorda nazarda tutilgan ipoteka krediti imtiyozidan foydalanish niyatidamiz.

### III darajali serjant Begali ABDULLAYEVning rafiqasi Jasmina BAHRONOVA:

– Ushbu qaror bizni juda xursand qildi. Turarjoy ijarasi, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasidagi rag'batlar nafaqat oilaviy byudjetimizga, balki kelgusi rejalarimizni amalga oshirishimizda ham ko'makchi bo'lishini his qildim. Uy olishga boshlang'ich mablag' yig'ayotgandik, buni qarangi, qarordagi imtiyozlar bizga yanada yengillik, qulaylik berdi. Oilaviy byudjetimizga ancha yordam bo'ldi. Yurtboshimizga harbiy xizmatchilarimizning oila a'zolari nomidan minnatdorlik bildiramiz. Albatta, bu kabi qarorlar yosh oilalarning ijtimoiy muhofazasini yanada yaxshilashi turgan gap.



### Katta leytenant Sardorbek ISMOILOV:

– Avvallari ijara puli yetmasligi sababli biroz qiyinchiliklarga duch kelardik. Yangi qarorda ko'rsatilgan ijara puli miqdorining oshirilishi, albatta, oilamizning ijtimoiy masalalarini hal etibgina qolmasdan,

farzandlarimizning shart-sharoitlarini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Biz bundan minnatdormiz. Davlatimiz sarhadlarini ishonch va matonat bilan qo'riqlashimizda bu judayam zo'r motivatsiya bo'ldi. Bunday g'amxo'rlikni, avvalo, harbiy xizmatchilarga bo'lgan yuksak ishonch va e'tibor namunasi

deb bilaman. Bunga, albatta, barchamiz munosib javob qaytarishimiz, Vatan himoyachisi degan ulug' nomga munosib bo'lishga bor kuch va bilimimizni safarbar qilishimiz zarur.

Harbiy xizmatchilarga berilayotgan bu kabi ijtimoiy kafolatlar va qo'llab-quvvatlash choralarini ularning jangovar ruhiyatini mustahkamlash, xizmatga bo'lgan sadoqatini oshirish va armiyaning umumiy mudofaa qobiliyatini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi. Tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida mehnat qilayotgan fidoyi va vatanparvar yurt himoyachilarimiz berilayotgan bu kabi e'tibor va rag'batdan yanada kuch olib, yelkalaridagi yuksak mas'uliyatni teranroq his etishi shubhasiz.

### Katta leytenant Sardorbek ISMOILOVning rafiqasi Diyora ISMOILOVA:

– Biz harbiylarning oilalariga e'tibor va g'amxo'rlik yildan yilga oshib, ko'rsatilayotgan yordam qamrovi kengayib bormoqda. Chunonchi,

davlatimiz rahbarining ushbu qarori ham mazkur jarayonlarning izchil davomi sifatida bizlarni katta hayajonga soldi. Turmush o'rtog'im bilan 5 yildan buyon ijarada turamiz. Shu sababli ijara uchun to'lanayotgan kompensatsiya miqdorining oshirilishi biz uchun quvonchli xabar bo'ldi.

Ta'kidlashni istardimki, turmush o'rtog'im xizmat taqozosi yuzasidan yurtimizning turli garnizonlarida faoliyat olib bordi. Shu bois men ham har xil shart-sharoitlarda yashab, harbiy hayotning past-u balandliklari, o'ziga xos qiyinchiliklari bilan yaxshi tanishman.

Oila bekasi sifatida, avvalo, Vatanni himoya qilishdek eng sharaflari, el-u yurt ardog'idagi, davlatimiz rahbariyati e'tiboridagi kasbni tanlagan inson bilan hayot yo'limni bog'laganimdan, unga yelkadosh bo'layotganimdan faxrlanaman. Bizga ko'rsatilayotgan ijtimoiy qo'llovlar, farovon turmush kechirishimiz uchun yaratilayotgan shart-sharoitlardan minnatdorman.



### Katta leytenant Yoqub AVEZOV:

– Qurolli Kuchlar tizimida o'tkazilib kelinayotgan islohotlar tufayli bugun milliy armiyamiz tom ma'nodagi professional armiya darajasiga yetdi. Uning tarkibida o'z kasbining haqiqiy fidoyilari xizmat qilib kelayotgani esa albatta, quvonarli hol. Ana shunday mard, barkamol yoshlar safida ekanim menga doim cheksiz faxr, iftixor baxsh etadi. Xizmat faoliyatimga 9 yildan oshdi. Shu davr mobaynida yurtimizning turli viloyatlaridagi harbiy qismlarda xizmat qildim. Yaqinda chiqqan qarorga ko'ra, harbiy

xizmatchilarga turarjoy sotib olish uchun ipoteka krediti olinishida ajratiladigan dastlabki badal miqdori turarjoy qiymatining 35 foiz miqdoriga yetkazilganini eshitib, rosti judayam xursand bo'ldik. Chunki har bir er yigit oila a'zolariga shart-sharoit yaratib berishni, ularni uy-joy bilan ta'minlashni burchi deb biladi. Shu niyatda yurgan safdoshlarim esa bu qarordan mamnun bo'ldi. Endilikda bizdan talab etiladigan yagona narsa bu xizmatimizni vijdonan bajarib, Vatanimizga sadoqat bilan xizmat qilishdir.

## Buyuk ajdodlarimiz



## BUNYODKOR SHOH, TENGSIZ SARKARDA...



Britaniyalik tadqiqotchi Villiam Erskinning "Bobur davrida Hindiston tarixi" nomli kitobini varaqlash asnosida buyuk shoir, davlat arbobi va qalb sohibi – Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizning nechog'li zukko, tadbirkor zot, ma'rifatparvar shaxs bo'lganiga yana bir bor amin bo'ldik.

### Tuproqraq kiyim

Boburshoh hamisha katta hududga ega Hindistonni to'liq zabt qilish haqida o'ylagan. Har kuni uning qo'shinida son-sanoqsiz yangiliklar kuzatildi. Yosh hukmdor o'zining barcha askarlariga tuproqraq harbiy liboslarni kiyishni buyurdi, chunki tuproqraq kiyim jang maydonida askarlar uchun eng yaxshi va yashirin vositasi hisoblangan. Zotan, yuzma-yuz jangda askarlarning aql-zakovati va jasorati, zobitlarning rahbarligi va boshqaruvi, moddiy-texnik ta'minot masalalari g'alabaniy asosiy omillari sanaladi, chunki bu borada ingliz va undan keyingi Yevropa va jahondagi boshqa qo'shinlar hamon Boburshoh qo'shinining usulidan foydalanmoqda (V. Erskin).

Bobur o'z qo'shinini tuzgach, harbiy tashkilotini qayta ko'rib chiqdi va harbiy qismlar hamda zobitlar saflarini iyerarxiya bo'yicha quyidagicha tartibga soldi: u qo'mondon (*o'nbo'shi*, *yuzbo'shi*, *mingbo'shi*, *tumanbo'shi*) va Sepah qo'mondoni bo'lib, ularning har biri o'z qo'shinlarida tartib-intizom va qoidalarga qat'iy rioya qilgan.

### Qurol-yarog'lar va porox

Boburshoh Hindistonga hujum qilish maqsadida ko'plab harbiy qurol va o'q-dorilarni tayyorlash uchun harakat boshladi. U Kobul,

Qandahor, Balx, Badaxshon va Hirotida mohir hunarmandlarni ishga yollab, tarbiyaladi. Ularni harbiy aslahalar ishlab chiqarishga jalb qildi. Bobur qo'shinida qo'llanilgan qurollar quyidagilardan iborat edi. Talvor – og'ir, ikki tig'li, ikki qirrali keng qilich. Bu qurol asosan, Boburning qandahorlik askarlari tomonidan ishlatilgan. Nayza, kamon va o'q – bu qurollar o'sha davrdagi barcha harbiy qo'shinlar uchun umumiy qurol-aslahalar sanalardi. Kopal yoki gurzi, bug'u yoki karkidon terisidan tayyorlangan qalqon, kamon, zanjirli ilgak, olov otuvchi qurilmalar, sallaqon, temir dubulg'a, xafton yoki zirh ham harbiy zaruriy vositalar sirasiga kirdi.

Boburning bobosi Amir Temur Ko'ragon davrida ilk bor Turkistonda kashf etilib, ishlab chiqarilgan porox dushmanga qarshi urushlarda turli shakllarda qo'llanilar edi. Porox har doim tunnellar qazish, to'siqlarni vayron qilish, mustahkam qal'alarni buzish uchun muhim harbiy vosita hisoblangan va uning harbiy qurollari tarkibiga kiritilgan edi. Bobur qo'shinining harbiy jihozlari tarkibiga jangovar fillar, tuyalar, miniladigan otlar, zaxira otlar ham kiritilgan edi.

### Sanoat va ishlab chiqarish

Boburning harbiy va harbiy tayanch tizimlari uning davlatida kasbiy ishlar va shahar hayotining rivojlanishiga

katta ta'sir ko'rsatdi. Minglab texnik va hunarmand ishchilar turli sohalarida ish bilan ta'minlandi, natijada o'g'rilik va yo'lto'sarlik ancha kamaydi. Kobul, Qandahor, Balx, Hirot, Badaxshon va boshqa shaharlar sanoat va ishlab chiqarish markazlariga aylantirildi. Bundan tashqari, qonunbuzarlar va jinoyatchilar uchun qat'iy jazo choralari belgilandi va amalga oshirildi.

### Ajralmas va zaruriy qism

Boburshoh har doim o'z safida diniy ulamolar, shoirlar, fuzalolar, olimlar, munajjimlar, muhandislar, harbiy maslahatchilar, hofizlar, harbiy cholg'u ijrochilari hamda turli hunarmand kasb egalaridan – zargar, temirchi, duradgor, ganchkor, etikdo'z, tikuvchi, oshpaz, sandiqbon, ayniqsa tajribali harbiy tabiblardan foydalandi. Ular Bobur qo'shinining ajralmas va zaruriy qismini tashkil etdi.

### Shaharsozlik

Obodonlashtirish yo'nalishida u katta mablag' va behisob sarf-xarajat qildi. Boburshoh Hirot va Balxning uzoq safaridan qaytgach, Kobul shahrini obodonlashtirish ishlariga kirishdi va muhandislar, me'morlar hamda hunarmandlarga yangi bir shahar qurishni buyurdi. Bobur yangi shahar rejasini tuzishni shunday buyurdiki, kelajakda shahar hududlarini kengaytirish imkoniyati bo'lsin va aholi sonining ortishi bilan yangi uylar qurish uchun yetarli joy mavjud bo'lsin. Shunday qilib, Kobul aholisi kelajakda uy-joy yetishmovchiligiga duch kelmasin. Bobur har bir mahallada katta bir masjid, besh hammom va bitta madrasa qurilishini rejalashtirdi. Bugungi kunda Yevropada nufuzli qurilish kompaniyalari va uy-joy qurilish muassasalari tomonidan qo'llanilayotgan – odamlarga uy qurib berib, so'ng ularning to'lovlarini muddatli ravishda undirish usulini ilk bor Boburshoh joriy etgan (V. Erskin).

### Ijara va kredit

Bobur o'z poytaxtida ikki turdagi odamlar yashayotganini anglab yetdi: birinchi guruh – o'z uyiga ega bo'lganlar va ikkinchi guruh – ijarada yashovchilar. O'sha davrda Kobulda ijarachilar soni uy egalari sonidan kam edi, chunki Sharq mamlakatlari aholisi qadimdan o'z uyida yashashga odatlangan edi. Bobur uyi bor odamlarni yangi uylar qurib, eski uylarini davlatga topshirishga undadi (*bu majburiy emas edi*). Ijarachilar esa o'z mol-mulklarini garovga qo'yib, uy narxini bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Bobur bu usulni Hindistonda ham tatbiq etdi, holbuki, bu uslub qadimgi zamonda ilgari qo'llanmagan edi. Aytish mumkinki, Bobur o'z davridan to'rt yarim asr ilgari ketgan edi. Yevropaliklar bu tizimni Ikkinchi jahon urushidan keyin amerikaliklar esa Birinchi jahon urushidan oldin joriy etdi (V. Erskin).

### Suv

Muhandislar shahar ichidagi suv oqimini shunday taqsimlagan ediki, yilning har faslida Kobulning barcha mahallalariga yetarli darajada suv yetib bordi. Natijada shahar

yashilligi hamda odamlarning bog' va bog'chalari hech qachon suvsiz qolmasdi.

### Jalol bog'i

Bobur Kobul shahrining iqlimini yaxshilash maqsadida ko'plab bog'lar va dam olish maskanlarini bunyod etdi. Ular orasida Jalol bog'i o'sha davrning eng mashhur bog'laridan biri bo'lib, eng yaxshi daraxtlar, butalar, gullar, gilamlar va bezak buyumlari, maxsus chiroqlar bilan bezatilgan edi. Ushbu chiroqlar kechasi bog'ni shunday yorug' etardiki, bundan har qanday mehmon hayratga tushardi. Bobur Kobulning iqlimini yoqtirar edi, chunki Kobul to'rt go'zal faslga ega. Kobul shahrida tog'lar, daryolar va chiroqli sahralar mavjud bo'lib, ular shaharning go'zalligiga yanada husn qo'shdi.

### Sharq dunyosining birinchi katta kutubxonasi

Boburshoh turk naslidan bo'lishiga qaramay, fors va arab tillarida ham bemalol so'zlasha oldi hamda bu tillarda she'rlar bitgan. Keyinchalik u hind va pushtu tillarini o'rgangan, chunki uning ayollaridan biri – Bibi Muboraka Yusufzay qabilasi yetakchisi Shoh Mansurning qizi edi. Boburshoh Sharq dunyosida birinchi bor katta kutubxona barpo etdi. U Hindistonning Amritsar shahrida qurilgan bo'lib, boshqaruvini ilmiy va dono ayoli Nubahar begimga topshirdi. Bobur unga kitob sotib olish uchun katta mablag' ajratdi. Nubahar shaharga jar solib e'lon qildirdi: "Kimda yaxshi qo'lyozma yoki kitob bo'lsa, uni bizga olib kelsin va yaxshi narxda sotsin!" Bobur Dehlida ham jahonning eng katta kutubxonalaridan birini tashkil etdi.

V. Erskin ta'kidlaganidek, ehtimol, dunyoda hech qachon Bobur asos solgan darajada ulkan kutubxona mavjud bo'lmagan. Boburshoh kutubxonasi uchun zamonaviy kutubxonachilik tizimini birinchi bo'lib joriy etdi. Kutubxona mukammal katalog tizimiga ega bo'lib, unda istalgan tilda va istalgan sohadagi kitoblarni tezda topish imkoniyati mavjud edi. Shuningdek, Bobur katta tarjima markazi – "Dar al-Tarjama"ni ham tashkil qildi va bunga ulkan mablag' sarfladi. Qizig'i shundaki, bugungi kunda London va Parij kutubxonalarida ham bunday tarjima markazlari yo'q. (V. Erskin)

Bobur avlodlari davrida bu ish yanada kengaytirildi va rivojlantirildi. XXI asrga kelib ham biror bir mamlakatda Bobur kutubxonalari bilan tenglashadigan ilmiy-ma'rifiy maskanlar yo'q.

### Agradan Kobulga...

Bobur 38 yil hukmronlik qildi va 49 yoshida Hindistonning Nurafshon shahrida, hijriy-shamsiy 905-yilda vafot etdi. Jasad dastlab Hindistonning Agra shahrida dafn etildi. Bobur o'z oilasiga jasadini Kobulga olib borib, Bobur bog'iga dafn etishlarini vasiyat qilgan edi. Vafotidan o'n yil o'tib, 1544-yilda uning afg'onistonlik rafiqasi Bibi Muboraka Yusufzay, o'g'li Humoyun bilan birga Boburning jasadini Kobulga ko'chirib, hozirgi Bobur bog'ining o'n to'rtinchi darajasiga dafn qildi.

**Humoyun Nadim MUHAMMAD,**  
Termiz davlat universiteti  
O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrasi katta o'qituvchisi

## O'quv-uslubiy yig'in



Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va madaniyat departamenti hamda "Chirchiq" dala-o'quv maydonida vazirlik qo'shinlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari bilan o'quv-uslubiy yig'in o'tkazildi.

## TARBIYAVIY VA MAFKURAVIY

Unda O'zbekiston Respublikasi mudofaa vaziri general-mayor Shuxrat Xalmuxamedov Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 21-fevral kuni Xavfsizlik kengashining davlat harbiy xavfsizligi va mudofaasini mustahkamlash masalalariga bag'ishlangan yig'ilishida belgilangan ustuvor vazifalari mazmuniga to'xtaldi. Qolaversa, qo'shinlarda tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organi ofitserlari tomonidan harbiy qism hamda muassasalarda sog'lom ma'naviy-ruhiy muhitni mustahkamlash, harbiy xizmat nufuzini oshirish, shaxsiy tarkib bilan ma'rifiy hamda axloqiy-ruhiy tayyorgarlik mashg'ulotlarini zamonaviy standartlar asosida o'tkazish uchun keng qamrovli islohotlar olib borilayotganini qayd etdi.



– Loqaydlik – eng katta dushanimiz, – dedi vazir o'z nutqida. – Ma'naviy uyg'oqlik, doimiy sergaklik va yovqurlik bilan qo'shinlarimiz qudratini yanada yuksaltiramiz.

Harbiy okrug (*birlashma*) qo'shinlari qo'mondonining hamda harbiy qism komandirlarining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari, ularning yordamchisi bo'lgan harbiy psixologlar, garnizonlar ma'naviyat va ma'rifat markazi boshliqlari, oliy harbiy ta'lim muassasalari hamda brigadalarning orkestr boshliqlari, hududiy mudofaa ishlari boshqarmalari boshlig'ining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari – "Vatan tayanchi" bo'limi boshliqlari ishtirokidagi ikki kunlik yig'inida, dastlab 2024-yilda Mudofaa vazirligi qo'shinlarida amalga oshirilgan tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha chora-tadbirlar sarhisob qilindi. Erisilgan yutuqlar va mavjud muammolarning yechimlari tahlil qilindi.

Prezident tashabbusi bilan tizimda yaxlit "ma'naviy poligon"ga aylangan Ma'naviyat va madaniyat markazi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti hamda Tarbiyaviy ishlar bosh boshqarmasi tomonidan sohani yanada takomillashtirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarga oid istiqbolli rejalar taqdimoti mudofaa vaziri e'tiboriga havola etildi.





## ISHLAR SARHISOBI



Dastavval, Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazida jismoniy tayyorgarlik me'yorlari bo'yicha sinovlarni topshirgan yig'in ishtirokchilari bilan bugunning dolzarb mavzulari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Unda "2024/2025-o'quv yilida Mudofaa vazirligi qo'shinlarida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarning tahlili, tizimda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha istiqboldagi vazifalar", "Zamonaviy qurolli mojarolar hamda rivojlangan xorijiy davlatlarning armiyalari tajribalaridan kelib chiqib, qo'shinlarda axloqiy-ruhiy ta'minotini tashkillashtirish masalalari", "Harbiy xizmatchilarni yakka tartibda o'rganish va ular bilan toifalarga bo'lgan holda tarbiyaviy-psixologik ishlarni olib borish tartibi", "Shaxsiy tarkibning ma'naviy, axloqiy fazilatlarini, jangovar ruhini kuchaytirishning dolzarb masalalari", "Jangning psixologik modeli. Jangovar harakatlarda psixologik ishlarni tashkillashtirish va olib borish tartibi" kabi mavzularda soha mutaxassislarining ma'ruzalari tinglandi.

O'quv-uslubiy yig'inning ikkinchi kuni "Chirchiq" dala-o'quv maydonida o'tdi. Yig'in ishtirokchilariga "Axloqiy-ruhiy tayyorgarlik mashg'ulotlarini rejalashtirish va



Bahrom ABDURAHIMOV



tashkillashtirish tartibi", "Jangovar tayyorgarlik amaliy mashg'ulotlarini jismoniy va ruhiy yuklamalar bilan uyg'un holda o'tkazish" mavzusidagi ko'rgazmali amaliy mashg'ulot namoyish etildi. "Jangovar harakatlar vaqtida axloqiy-ruhiy ta'minot tadbirlarini majmuaviy tarzda o'tkazish tartibi" mavzusidagi ko'rgazmali amaliy mashg'ulot esa 3 bosqichda tashkil etildi.

Dastlab jangovar harakatlarga tayyorgarlik davrida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar organlari, harbiy psixologlar tomonidan harbiy xizmatchilar bilan jangovar psixologik treninglar o'tkazildi. Shartli jangovar harakatlar olib borish davrida esa psixologik kuzatuv tadbirlari amalga oshirildi. So'nggi, ya'ni jangovar harakatlardan keyingi tadbirlarda shaxsiy tarkibni psixologik rehabilitatsiya qilish hamda madaniy hordiq chiqarish jarayoni tanishtirildi.

Ikki kunlik yig'in yakunida mudofaa vazirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev soha mutaxassislari oldida turgan eng muhim jihatlariga to'xtalib, zarur yo'riqnomalarni yetkazdi. Shuningdek, yig'in sarhisobidan kelib chiqib, kelgusi vazifalar belgilandi.

**Katta leytenant Dilshod RO'ZIQULOV,**  
"Vatanparvar"

## Taktik-o'quv mashg'ulot



## TURLI MANZIL, BITTA MARKAZ

Mudofaa vazirligi bo'linmalarida zamonaviy aloqa va axborot-kommunikatsiya tizimlarining joriy etilishi, elektron ma'lumotlar almashinuvi, bo'linmalar harakatini onlayn nazorat qilish, mobil aloqa texnikalarining modernizatsiya qilinishi – raqamlashib borayotgan davr talabi.



Kichik serijant Davlatbek RAHMATOV

Joriy etilgan va etilayotgan aloqa hamda axborot tizimlarini qo'shinlarning kundalik va jangovar faoliyatida to'g'ri qo'llash, ularni ekspluatatsiya qilish hamda uzluksiz ishlashni ta'minlashda malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj kundan kunga oshib bormoqda. Aloqa va axborot texnologiyalari mutaxassislari tayyorlash hamda muntazam ravishda ularning malakasini oshirib borishni ham zamon talab qilmoqda.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug hududida joylashgan harbiy qismlarning aloqa bo'linmalari shaxsiy tarkibining o'quv yili mobaynida olgan nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko'rish bo'yicha o'tkazilgan mashg'ulotlar ham mutaxassislarning malakasini

oshirishga qaratilgan vazifalarni o'z ichiga oldi.

Uch kun davom etgan o'quv yig'inining birinchi va ikkinchi kunlarida mutaxassislar harbiy topografiya, maxsus-taktik, ma'naviy-ma'rifiy, jangovar va jismoniy hamda otish tayyorgarliklari bo'yicha sinovdan o'tkazildi.

– Shaxsiy tarkibning qo'shinlarni boshqarishdagi uzluksiz va ishonchli aloqa ta'minoti qay darajada ekanini aniqlash belgilangan edi, – deydi mayor Po'lat Ahmedov. – O'tkazilgan ushbu taktik-o'quv mashg'ulotida shaxsiy tarkibning jangovar shay holatda ekani o'z

isbotini topdi. Hozirda aloqa vositalarini qo'llay olish bo'yicha mutaxassislarning o'ziga bo'lgan ishonchi yuksak.

Yig'inning so'nggi kunida zamonaviy raqamlashtirilgan aloqa va axborot texnologiyalari vositalarini qo'llagan holda davlat aloqa tizimlariga bog'lanmasdan harbiy radioto'lqin trassasini yaratishdan iborat bo'ldi. Va shu orqali aloqaning barcha turlarini tekshirish, shaxsiy tarkibni jangovar shaylik holatiga keltirish, signal bo'yicha belgilangan hududlarga qisqa muddatda yetib borish hamda joylashish kabilar tekshirildi. Belgilangan hududga chiqib, aloqaning barcha xizmat turlari ochildi.

Bo'linmalar o'rtasida aloqalar tizimi yo'lga qo'yildi.

Turli hududlarda joylashib, aloqa uzellari ma'lumotlarini umumlashtiradigan markazga bog'landi. Aloqaning barcha yo'nalishlarida ma'lumot uzatish orqali markazga bog'langan hududiy uzellar vazifani a'lo darajada uddaladi. Bu galgi taktik-o'quv yig'ini ham, aloqa va axborot texnologiyalari mutaxassislarning yuqori jangovar, axloqiy-ruhiy va vatanparvarlik sifatlarini, murakkab jangovar vaziyatlarda tez va oqilona qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishda yana bir bor ko'nikma va tajriba bo'ldi.

**Sherzod SHARIPOV,**  
"Vatanparvar"



Yangi O'zbekiston lochinlari

# ORZULAR QANOTIDA UCHISH



Samolyot, samolyot qanotida olib ket... Bolaligimizdagi mashhur iboralardan birini aytgancha, necha yoshimizgacha samolyot ortidan yugurgan bo'lsak. Menimcha, maktab yoshigacha bo'lsa kerak. Garchi buning iloji bo'lmasa-da, bir kun kelib, uning qanotida uchishga qattiq ishonganmiz. Shuning uchun ko'cha changitib, samolyot ortidan chopgancha, mana shunday orzular qanotida uchmagan inson kamdan kam topiladi.

Qaysidir film premyerasi haqida so'z ketganda aktyorlarning qizil gilam to'shalgan yo'lakdan kirib kelishi ko'z oldimizda gavdalanadi. Go'yoki, film taqdimoti emas, qimmatbaho kiyimlar ko'rgazmasi deysiz. Aslida ham shunday. Jarayonni yoritadigan ommaviy axborot vositalari uchun kinoasardan, unda bajarilgan rollardan ko'ra, ko'proq kimning libosi qaysi firmaga tegishli, narxi qanchaligi muhim. Mulozamatlar va olqishlarning soxtaligini aytmaydiz. Xullas, yillar davomida siyqasi chiqqan mavzu.

Kasbim taqozosi bilan "Yangi O'zbekiston lochinlari" hujjatli-xronikalik filmning taqdimotida qatnashdim. Yuqoridagi holatning umuman teskarisi bo'lgan vaziyatga duch keldim. Ortiqcha hasham, qizil gilam to'shalgan yo'lak ham yo'q. Hammasi samimiy, tabiiy. **Chunki filmda rol ijro etgan aktyorlar oramizdagi qahramonlar – Vatan himoyachilari.** Ularga soxta mulozamat va olqishlar yarashmaydi. Ularni kim ham taniydi, deyishingiz mumkin. Tanishi muhim emas. Vatanparvarlik va mashhurlik o'rtasida mutanosiblik boshqa-boshqa narsalar. Negaki **vatanparvarlik har qanday hashamdan, tengsiz boylikdan ham yuqori turuvchi tuyg'u.** Mashhurlik esa tez kelib, tez unutiladigan hayotiy jarayonlardan biri.

Aslida **"Yangi O'zbekiston lochinlari"** hujjatli-xronikalik filmning qahramonlarini millionlab hamyurtlarimiz teleekranlarda, gazeta va jurnallarda ko'rishgan. Ko'rganda ham Prezidentimiz, Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qo'mondoni bilan yonma-yon o'tirib suhbatlashishini ko'rgan. O'shanda onasi Nigora Ro'ziyaxunova "Bu mening o'g'lim", opasi Shahnoza Mahmudjonova va akasi Ziyodullo Mahmudjonov

"Bu mening ukam", yaqinlari, mahalladoshlari, tanigan-bilganlar "Bu bizning Asadullo uchuvchi" deb faxrlangani aniq. Men hikoya qilmoqchi bo'lgan qahramon leytenant Asadullo Mahmudjonov ham bolaligidagi do'stlari Fazliddin, Xurshid, Habibullo bilan birgalikda osmonda uchgan samolyot va vertolyotlarning ortidan yugurib katta bo'lgan. U boshqalardan farqli o'laroq, bolalik orzusiga erishgan. Eng muhimi – hamma havas qiladigan tarzda erishgan.

– Yoshligimdan juda ham urishqoq bo'lganimni yaxshi eslayman, deya hikoya qiladi qahramonimiz. – Buni uydagilarim va oshna-og'aynilarim ko'p eslatib turishadi. Men buni urishqoqlik emas, o'zimni boshqalardan ko'ra ko'proq narsalarni uddalay olishimga ishontirish deb hisoblardim. To'g'ri, juda qaysar va jizzaki bo'lganman. Chunki har sohada yetakchi bo'lish asosiy maqsadim edi-da. Shuning uchun sportning barcha turlarini yaxshi o'zlashtirishga harakat qilardim. Futbol, voleybol, basketbol, stol tennisi, boks bo'yicha turli musobaqalarda sovrindor bo'lganman.

Oilada kenja farzandman. Opam va akamdan keyin tug'ilganman. Opam ham, akam ham oilaviy sharoit tufayli oliy ma'lumotli bo'la olmagan. Shuning uchun ular butun e'tiborlarini mening biror oliy ta'lim muassasasida o'qishimga qaratishgan. Onam ham har doim oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lishimni ta'kidlashni kanda qilmasdi. U 33 yildan buyon Xalq bankining Marhamat tumani filialida mehnat qilib keladi.

Har safar ta'tilga borganimda bolaligimdagil bir voqeani qayta-qayta kulib eslaydilar: o'rtoqlarim Fazliddin, Xurshid, Habibullo bilan birgalikda osmonda uchgan samolyot va vertolyotlarning ortidan tinmay

yugurardik. Keyin onamning oldiga borib, "Oyi, oyi, dadamga ayting, shotimizni (*narvon*) tuzatsinlar! Katta bo'lib samolyotda, vertolyotda uchayotganimda tomga narsa tashlab ketaman. Keyin uni qanday olasizlar", deb rosa xarxasha qilardim. Ana shu beg'ubor bolaligimdagil qiziqishim tufayli harbiy aviatsiya sohasiga kirib kelganman. To'g'risini aytganda, oddiy oilaning farzandiman. Dadam Abdullajon Ro'ziyaxunov dehqonchilik bilan shug'ullangan. Qovun-tarvuz ekardi. Shuning uchun dalada katta bo'lganman, desam adashmayman. Biroz ulg'ayganimdan so'ng keng daladagi sim karavotda moviy osmonda parvoz qilayotgan samolyotlarga uzoq-uzoq qarab yotishni yoqtirardim. Dadam uchuvchi bo'lish haqidagi orzularimni bilgani uchun meni ortiqcha bezovta qilmasdi. Bo'sh paytlarimda dadamning o'zi sport to'garaklariga yetaklab borardi. Akam esa turlikda tortilish bo'yicha ko'plab murakkab mashqlarini o'rgatardi. Onamning aytishlaricha, qaysarligim, sportga qiziqishim dadamdan o'tgan.

Boshlang'ich saboqni mahallamizdagi 16-umumta'lim maktabida olganman. Keyin o'qishni Marhamat tumanining markazidagi 3-maxsus maktabda davom ettirganman. Bu maktab aniq fanlarni chuqur o'zlashtirishga ixtisoslashtirilgan edi. Sinf rahbarim Abdurahmon Hakimov va boshqa ustozlarimdan ko'p narsalarni o'rgandim va maktabni imtiyozli guvohnoma bilan tamomladim. 8-sinfda o'qib yurgan kezlirim oilamizning suyanchig'i dadam vafot etib qoldi. Bu mash'um voqea biz uchun qattiq zarba bo'ldi. Shundan so'ng harbiy uchuvchi bo'lish ahdim yanada kuchaydi va 9-sinfni tugatganimdan keyin Farg'onadagi "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyiga hujjat topshirdim.

"Litseyga kira olmasang-chi? O'qishni shu yerdagi birorta kollejda davom ettira qol?" O'shanda uning xavotir bilan aytgan gaplariga qaramay, Farg'onaga yo'l oldim. Oyim men uchun hayotda yutqazishdan ko'ra og'irroq narsa yo'qligini bilardi va litseyga kira olmasligim qattiq

zarba bo'lishidan tashvishlangan. Imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tib, egnimga harbiy libos kiydim. "Temurbeklar maktabi"ni a'lo baholarga tugatib, O'zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya

institutiga imtiyoz bilan qabul qilindim. Keyin... keyin esa ko'rib turganingizdek Yak-52, L-39 samolyotlari va Mi-8, Mi-171 vertolyotlarida uchgan harbiy uchuvchiga aylandim. Ularning har bittasida yuzlab soat parvoz vaqtiga egaman... Podpolkovnik Davron Jahonaliyevdan samolyotda, podpolkovnik Dilshod To'ychiyevdan vertolyotda uchish sirlarini o'rgandim.

Bir qarashda Asadullo uchuvchilikka osonlikcha erishganday tuyuladi. Ammo buning ortida qanchalik mashaqqatli mehnat, tinimsiz izlanish, maqsadga intilish va kelajakka ishonch bo'lganini uning o'zi biladi. Onasi Nigora Ro'ziyaxunova, opasi Shahnoza Mahmudjonova va akasi Ziyodullo Mahmudjonov, bolaligidagi do'sti Fazliddin Husanov, maktabdagi, litseydagi, aviatsiya institutidagi ustozlari biladi.

Leytenant Asadullo Mahmudov 2002-yil 9-yanvarda Andijon viloyati Marhamat tumanining To'lg'a mahallasida tug'ilgan. Sevimli adibimiz, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning yurtdoshi. Shu sabablimi Asadullo ham ba'zi-ba'zida ijod bilan shug'ullanib turadi.

**"Yangi O'zbekiston lochinlari"** hujjatli-xronikalik filmi taqdimoti munosabati bilan leytenant Asadullo Mahmudov va kursant Shermuhammad Toshmuhammedovning hayot yo'li bilan qisman tanishish imkoniga ega bo'ldim. Shu holatda Leonardo Di Kaprio ijrosidagi "Aviator", Vaxtang Kikabidze ijrosidagi "Mimino" filmlarida uchuvchi bo'lish mashaqqatlari ko'z o'ngimga keldi. Katta ekran yuzini ko'rgan aviatorlar haqidagi bunga o'xshagan ko'plab kinoasarlarni keltirish mumkin. Kelajakda bizda ham shunday filmlar yaratish uchun tayyor ssenariylar ko'p. Qaysidir bir rejissyorning Kun.uz saytiga bergan intervyusida "Bizda xalqona filmlarni yaratish uchun mavzu bo'ladigan voqeliklar yetishmaydi" degan bahonasiga ko'zim tushgandi. Samolyot, samolyot qanotida olib ket!.. Mana, sizga mavzu. Shermuhammad Ashirov, Nariman Abkelyamov, Temur Choriyev, Asadullo Mahmudov, Shermuhammad Toshmuhammedov – mana sizga qahramonlar.

**Asror RO'ZIBOYEV,**  
"Vatanparvar"

## Millatparvarlar



Dunyo ikki qutbga bo'linishining ilk davri XX asr boshlarida Turkiston jadidlari ham ozodlikka erishish, o'lkada jiddiy islohotlar o'tkazish, el-ulusni yorug'likka olib chiqish yo'lida zahmat chekdi. Maorif, iqtisod, siyosat, zirot borasida muhim tashabbus va harakatlarni o'z qo'llariga oldilar.

Vadud Mahmudning 1924-yil 17-dekabrda "Zarafshon" gazetasida e'lon qilingan "Yangi davr, yangi yo'l" nomli maqolasi ham fikrimizning yaqqol isbotidir. Uning avvalidagi fikrlarida jadidlar inqilobchilarning yolg'on va dalariga ishongani seziladi. Ammo maqsad va maslagiga sodiq ravishda Vadud Mahmud O'zbekistonning "markazi Samarqand bo'lishi munosabati bilan" yangi quriladigan hukumat binosi to'g'risida fikr bildirar ekan, ulug' "olimlar, hakimlar, shoirlar, san'atkorlar yetishtirgan bir o'lka" tarixiga nazar tashlab, "bizning o'z ruhimizning aksi bo'lg'on me'morimiz bor ekan, nechun qurulaturg'on binolar o'z ruhimizda qurulmasin?" deb savol qo'yadi. "Bu masalaga xalq xodimlarining ahamiyat berishlari"ni istab, "Turkiston mazlum elining birdan bir dahosining tajassum etilishini ko'rsataturgan bir gavda qurishlari kerakdir", deydi.

## Vadud MAHMUD

## YANGI DAVR, YANGI YO'L

Turkiston o'lkasi o'zining tarixida toza yaproqlarga ega bo'lmoqda. Xayolga o'tmagan voqealarni haqiqat shaklida qarshi olmoqda. Ovruponing Ovrupo madaniyati atalg'on yo'l ostida joni chiqib, ingrab yotg'on shu choqda O'zbekiston o'zini yangi hayot eshigi oldida ko'radir. Ovrupo "sarvat"ning qonli va chirkin panjalari orasida siqilmoqda va milliy-sinfy dushmanlarning to'poloni ichida yo'lini yo'qotmoqda ekan, Turkistonning mazlum xalqi o'z tongining ota boshlag'onini sezmakdadir.

Bu yangi hayot, O'zbekiston jumhuriyatida boshqa millatlar bilan bir huquqda, butun milliy zulm va zolimliklardan uzoq, o'zbek jumhuriyatining qurilishi fikridir. Oktabr inqilobining mazlum millatlarga beraturgan erki Ovrupoda bo'lg'onidek bo'lmay, birovdan zulm chekmak, birovga zulm etmak asosiga qarshi bo'lishi kerakdir.

Har millat "tugal erk" bilan o'z hayotini tansiq (*kombinatiya*) etishga ega bo'lishi lozim.

Har millat o'zining ijodiy qobiliyatini umumga foydalik bir yo'lida o'sdirishga tirishmakga yo'l topmog'i kerakdir. Shundagina millatlar o'sa oladirlar va shundagina bashariyat yuksalaturgan bir holda bo'la olur. Bu esa millatlarning muqaddiriyatlarini hal eta olaturg'on bir holga kirgan vaqtdagina mumkin bo'la olur.

O'zbek jumhuriyatini oktabr inqilobi shu tasavvurlar bilan tug'dirdi. Baynalmilal ba'zi kishilarning o'ylaganicha dunyoda hech bir millat qoldirmaslik ma'nosida bo'lmay, balki Yer yuzida bo'lg'on millatlarining ayrim-ayrim o'z muqaddiriyatlarini boshqalarga zarar bermaslik ravishda tuzmakliklaridir. Shuning uchun-da, har millat o'zini o'zi idora etishga qancha iqtidorli bo'lsa, baynalmilal shuncha mahkam asosga tayangan bo'ladi. Shuning uchun o'zbek jumhuriyati Turkistonning yangi yo'lga kirish davrida muhim bir yo'l boshi sanalishi mumkin.

Maqolamizning maqsadi, o'zbek milliy jumhuriyatining asosini taftish va izoh bo'lmag'onidan shu qisqa muqaddima bilan kifoyalanib maqsadga o'tamiz.

O'zbek jumhuriyatining markazi Samarqand bo'lishi munosabati bilan tuzulaturg'on ijroqo'm uchun Samarqandda bir bino qurmakka qaror bo'lg'onini eshitdik. Mana shu munosabat bilan biz ba'zi

mulohazalarimizni maydonga o'tmoqchimiz.

Turkiston eski madaniy dunyoning baynalmilal chegarasida eng yuqori o'run tutaturg'on olimlar, hakimlar, shoirlar, san'atkorlar yetishtirgan bir o'lkadir. Turkiston Sharqiy, Janubiy va G'arbiy Osiyoning bir-biroviga to'qushaturg'on bir mavzeda bo'lg'onidan iqtisodiy nuqtalarga molik bo'lg'ondir. Shuning uchun-da, bir vaqtlar madaniyatning eng yuqori darajasiga mingandir. Keyingi vaqtlarda ikki dunyo bozorlarining Ovrupo va Amriqo savdogarlariga ochilishi va savdo yo'llarining o'zgarishi mahalliy madaniyatning pastlashishiga sabab bo'lg'ondir... Eski madaniyatimizning bu qismi (*ba'zi musbat olimlardan boshqa bo'lg'on qismi*) ham boshqa, eski ilm va fan qismi keyin qolg'on deb aytib bo'lmaydir. Chunki bir millatning madaniyati yuksalgan vaqtdagi yetishdirgan dohiylarning asarlari u millatning "turg'unliq" davrida doimo manfaatkorlar tarafidan mo'dul sanalg'on va o'shanga o'xshatmoq g'oya o'rmini olg'ondir. Bu hol butun dunyodagi millatlarining boshidan o'tgandir.

O'n oltinchi asrning birinchi yarmida Italiyadan yetishgan Rafael, Ansilalarning lavhalari o'n sakkizinchi, hatto hozirgi asrgacha mo'dul o'rni ishlatiladi.

Germaniyada Golbin, Durirlarning maktablari o'n sakkiz va o'n to'qqizinchi asrgacha davom etgandir.

Bu millatlar, hatto necha yuz yillik hayotlarida boshqadan shunday daholar ko'rmaganlaridan hali ham shularga yetishmak uchun tirishadirlar. Mashhur musiqachi Betxoven necha asrdan beri dunyoning eng sevimli kishisidir. Navolari doimo rag'bat bilan eshitiladi va uning kabi bo'lishga tirishiladi.

Bizning tariximizda ham shunday ahamiyatli shaxsiyatlar oz emasdir. Ularning asarlari necha

asrlardan beri qo'llanma vazifasini ado qiladi. Musiqamizning sakkiz asrdan ortiq bir tarixi bo'lg'oni kabi me'morchiligimizning sakkiz asrga yaqin umri bordir. Musiqamiz shu asrlar bo'yincha, tabiiy, turli o'zgarishlarga uchragandir.

Faqat so'nggi vaqtlardagi vasiqalarga qaraganda, uch-to'rt asr orasida o'zgarish juda oz bo'lg'andir.

Me'morimizda ham hol shudir.

So'nggi kunlarda Buxoroda kashf etilgan yettinchi asrlarda bino etilgan bir mozor bilan undan ikki asr so'ng yasalg'on Sherdor madrasasi bino etilgan, undan ikki asr so'ng Ho'qandda bino etilgan Umarxon madrasasi va shu so'nggi asrning asari bo'lg'an Xudoyorxon o'rdasi - hammasi islom-turk me'moring Turkiston uslubi tarzining takroridir.

Yuqoridagi bu izohdan ma'lum bo'ladir, bizning madaniyat asrimizdan qolg'on muhim me'morimiz bordir va haligacha davom etadir. Bu bilan biz shuni aytmoq istaymiz, bizning o'z ruhimizning aksi bo'lg'on me'morimiz bor ekan, nechun qurulaturg'on binolar o'z ruhimizda qurulmasin?

Ayniqsa, yangi tarixiy davr bilan boshlanaturg'on Turkiston tarixi o'zining birinchi qadamida, g'oyasida bo'lg'on milliy-ijtimoiy jumhuriyatning markazi sifatini olaturg'on ijroqo'm binosini butun hay'at bilan qaysi yerning, qaysi elning natijasi va egasi bo'lishini gavdalantirib ko'rsatishi kerakdir?

Albatta, Turkistonning emasmi?!

Shuning uchun-da, bu masalaga xalq xodimlarining ahamiyat berishlari va rus jahongirining ishi bilan Turkiston mazlum elining birdan bir dahosining tajassum etilishini ko'rsataturgan bir gavda qurishlari kerakdir.

Bu bino Turkiston yangi madaniy hayotining tub toshi (*tag kursi*) bo'lishi kerakdir.



Ibrat



KAMOL TOPGAN

## KOMIL USTOZ

## “SENDAN YAXSHI FIZIK CHIQAADI”

Ikkinchi jahon urushi yillari Buxoroning chekka tumani bo'lmish G'ijduvonda dehqonchilik bilan kun ko'radigan Muqim bobo va Umida momo xonadonida oltinchi farzand – Komil dunyoga keldi. Kenja o'g'lini taqdir ko'p ham erkalatmadi. U bugun O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, kimsan professor Komil Muqimov sifatida el ardog'ida esa-da, o'sha paytlarni bunday xotirlaydi:

“– Toshlabotcha qishlog'idan G'ishtiga, ya'ni boshqa jamoa xo'jaligidagi 2-maktabga qatnab o'qirdik. O'sha paytda maktablar juda kam edi. G'ijduvonliklarning teng yarmi yuqori sinfga o'tgach, shu maktabga kelardi. Sinfimizning old o'quvchilaridan edim. Fizikadan Halima ismli boshqird ayol dars berardi, urush sabab taqdir izmi bilan shu yerga kelib qolgan edi (rahmatli). Uning darslarini ilhaq kutardik. Ayniqsa, men. “Sen olim bo'lishing kerak, sendan yaxshi fizik chiqadi”, derdi u. Qo'limdan fizika tushmasdi”.

Taqdirga ta'bir yo'q ekan. Komil ikki yasharliligida otadan, o'n oltisida onadan ayrildi. Bir muddat gangib qoldi, yaxshiki jigarlari bor, ilm deb tunlarni bedor o'tkazadigan yigitga yaqinlari tayanch bo'ldi.

“– Garchi bolaligim urushdan keyingi och-nochorlik yillariga to'g'ri kelsada, darslar men uchun hayot-mamot masalasi edi. To'g'ri, o'sha paytlar qornim to'yib non yeya olmadim. Kiyganim yamoq ko'ylak bilan yirtiq kalish bo'ldi. Maktabga ham shu ahvolda qatnadim. Bundan zinhor uyalmadim. Agar qaysidir fan bo'yicha a'lo baho ololmasam, bu men uchun isnod edi. Oilamni qutqarish uchun jiddiy o'qishim kerak, derdim o'zimga. Maktabdan so'ng ro'zg'orning bir tomonini ko'tarib turgan sigirimizni o'tlatgani yetaklab chiqib, dalada ham muk tushib kitob o'qirdim”.

Komil azbaroyi o'qish umidida hovlisidagi meva-yu sabzavotlardan bozorga orqalab borib sotar, to'plagan puliga daftar-kitob olib, ortganini ro'zg'orga ishlatardi...

## ILMIY MAKTAB YARATILDI

Qahramonimiz o'rta maktabni a'loga tugallab, orzular yetovida O'rta Osiyo davlat universitetining Fizika-matematika fakultetiga hujjat topshiradi. Maktabni oltin medal bilan yakunlagani uchun universitetga suhbat bilan qabul qilishadi.

Bu yerdagi kutubxonalar talabaga uyidek edi. O'z yo'nalishiga doir yangi kitob qo'liga tushsa, naq oltin yombisi topgandek sevinardi. Tolibi ilm ko'p o'tmay, ustozlar nazariga tushdi.

“– Uchinchi kursdaligimda a'lochilar safida Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Fizika fakultetida tahsilni davom ettirdim. Ana shu davr nazariyadan ilmiy-amaliy faoliyatga o'tish paytim bo'ldi. Magnitizm kafedrasini mudiri, atoqli olim, professor Yevgeniy Ivanovich Kondorskiy termomagnit effekti mavzusida ilmiy tadqiqotlarimga rahbarlik qildi. Nomzodlik dissertatsiyamni esa magnitizm sohasining katta bilimdoni Aleksandr Grigoryevich Shishkov rahbarligida himoya qildim. O'qishni tamomlab Toshkentga qaytgach, Toshkent davlat universiteti Fizika fakultetida katta o'qituvchi, dotsent, kafedra mudiri lavozimlarida ilmiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullandim. Keyinchalik doktorlik dissertatsiyasini Xarkov shahrida himoya qildim. Izlanishlarim besamar ketmadi. Fakultetimiz jamoasi meni fakultet dekani etib sayladi. Shu bilan birga, Toshkent davlat universiteti huzuridagi “Amaliy fizika” laboratoriyasi mudiri vazifasida ham ishlarimni davom ettirdim”.

1970-yillarda magnit materiallarining kompleks tadqiqotlarini mukammallashtirish hamda ularning telekommunikatsiya sohasida axborotlarni saqlash va uzatish, element bazalarining arxitekturasini optimallashtirish jahon miqyosida asosiy masalalardan biri bo'lgan. Bu esa magnitoptik effektlarining optik ko'zga ko'rinish va yaqin infragizil spektr sohasida sintez qilingan ferrodielektrik materiallarining yangi avlodini yaratishni taqozo etardi.

Yosh olim bu borada Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Rossiya va boshqa rivojlangan davlatlarda axborotlarni magnit disklarda yozish, saqlash va o'qishda foydalaniladigan N-qatlamli magnit strukturasi yorug'likning ko'p martalab qaytishi va o'tishi mexanizmlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilayotganiga jiddiy qiziqib qoldi.

Uning izlanishlari natijasida magnit hodisalar fizikasi sohasida “Kuchli magnit maydonida nodir elementlar magnitoptikasi” ilmiy yo'nalishi yaratildi. Ya'ni respublikada yangi bir ilmiy maktab tashkil qilinib, ikki yilda bir marta magnitoptika sohasida Xalqaro konferensiyalar, seminarlar tashkillashtiriladigan bo'ldi.

## MUQADDAS QO'RG'ON

“– Suyangan tog'im, otam o'rnida otalik qilgan mehribon akam – Yo'ldosh Muqimov

“Pravda” gazetasining O'zbekistondagi maxsus muxbiri edi. U ko'p kitob mutolaa qilardi. Shu bois qachonki jiddiy ishlarga kirishish oldidan ulardan maslahat olishni kanda qilmasdim.

Rossiyaga esa meni nafaqat ilm, balki taqdirim boshlab kelgan ekan. Aspiranturada ilmiy faoliyat bilan shug'ullanib yurgan kezlirim bir toliba qizga mehrim tushib qoldi...”

Toshkentdagi universitet aspirantlari yotoqxonasida ikki fan nomzodi o'g'li bilan yashar, sabr-qanoat, uyqusiz tunlar zahmati zoye ketmasligiga ich-ichdan ishonishardi. Olima ayol uzoq yillar Toshkent davlat universitetida mehnat qildi. Keyinchalik Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida ishladi. Akademikning o'g'li ota kasbini ulug'ladi. Malika esa Angliyaning nufuzli universitetlaridan birida magistraturani o'qidi. Ayni damda u Toshkentdagi Xalqaro Vestminster universitetida yoshlarga bilim beradi.

## BUXDUNING BIRINCHI REKTORI

Buxoro davlat pedagogika institutiga jadidlik harakatining yorqin namoyandasi va davlat arbobi Fayzulla Xo'jayev tamal toshini qo'yan. 1992-yilga kelib, ana shu oliy ta'lim muassasasi negizida Buxoro davlat universiteti tashkil qilindi. Unga Toshkent va Moskva universitetlarida yetarlicha tajriba orttirgan fizik olim birinchi rektor etib tayinlandi. Bu ishonchni oqlash uchun dunyo darajasida olim bo'lishing o'zi kamlik qilardi. Yangi rahbar ilk e'tiborni kadrlar salohiyatidan kelib chiqib ularni rag'batlantirish, har bir lavozimga faqat arziydiganlarinigina tayinlashdan boshladi. Buni sifatli dars beruvchi professor-o'qituvchilarning tabaqalashgan oylik maoshlarini joriy qilganida ham ko'rish mumkin. Boshqacha aytganda, o'sha davrda o'z ishining ustasi bo'lgan pedagoglarning oylik maoshi 25-30 foizga oshirildi. Ustama haqlar universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan to'lanib borildi. Shuningdek, talabalar bilimini baholash reyting tizimi joriy qilindi.

“– Ishning natijasiga qarab baho berish, halol, qat'iyatli, adolatli, tashabbuskor bo'lish oson emas. Ammo shundaygina rahbarga ishonishadi, unga ergashishadi. Tashkiliy ishlarida sekin-asta zamonaviy metodlarni qo'llay boshladim. Oldimizga pedagog kadrlar bilan bir qatorda xalq xo'jaligining turli sohalariga mutaxassislar yetkazib berish vazifasi qo'yildi. Dastlab agronomiya, agrokimyo, tuproqshunoslik, agromuhandislik mutaxassisliklari bazasida Agrar fakultetini tashkil etdik. Iqtisod fakulteti, shuningdek magistratura mutaxassisliklari ochildi, aspirantura, doktorantura ixtisosliklari ko'paytirildi”.

Komil Muqimov tashabbusi bilan ilmiy tadqiqot ishlarini xalq xo'jaligining turli sohalarida qo'llash, bu orqali fan va ishlab chiqarishning innovatsion korporativ hamkorligining samarali mexanizmini yo'lga qo'yishga erishildi. Bunga o'sha payt universitet huzurida tashkil qilingan Biotexnologiya muammolari, Geliyofizika va quyosh energiyasidan foydalanish, Geliopoligon, Cho'l ekosistemi muammolari kabi ilmiy laboratoriyalarni misol qilsa bo'ladi. Bundan tashqari, Ekologik markaz, Psixologik xizmat ko'rsatish markazi, Sotsiologik tadqiqotlar markazi, Innovatsion ilm-ta'lim texnologiyalari markazi kabilar ilm-fan yutuqlarini ishlab chiqarishga tatbiq etishda qo'l keldi.

Bu hali hammasi emas. Ta'lim uzviyligini ta'minlash maqsadida respublikada birinchilardan bo'lib BuxDU huzurida maktab-gimnaziya tashkil qilindi. O'quvchi-yoshlarni ilmiy ishlarga qiziqtirish va keng yo'naltirish

maqsadida, universitetda “Kichik akademiya” va “Yoshlar akademiyasi” ish boshladi, ularda 521 nafar iqtidorli o'quvchi-talaba faoliyat ko'rsatdi.

Shuningdek, universitetda ilmiy ishlarni yanada rivojlantirish maqsadida “Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti” va “Pedagogik mahorat” jurnallari muntazam nashr etila boshlandi. So'ngra respublika miqyosida ilk marta “Psixologiya” jurnali chop etildi. Ma'rifatparvar olim “Naqshbandiya” ilmiy markazini tashkil etib, shu nomdagi jurnal chop qilinishiga ham bosh-qosh bo'ldi.

## XALQARO HAMKORLIK ISTIQBOLLARI

Oliy ta'lim muassasasida ilmga qo'yilgan poydevor mustahkam bo'lgach dunyoning rivojlangan davlatlarini nufuzli universitetlari bilan hamkorlikda o'quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot, tajriba almashish, malaka oshirish kabi sohalar bo'yicha aloqalar o'rnatishga kirishildi.

Universitetda ikki bor “Yadro fizikasining istiqbollari” mavzusida xalqaro konferensiya o'tkazildi. Konferensiyaga dunyoning 41 mamlakatidan mutaxassis olimlar jalb qilindi.

Fizik olim tashabbusi bilan Buxoroda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy markazi tashkil qilinib, AQShning Merilend va Garvard, Fransiyaning Parij-Sud, Germaniyaning Berlin, Boxum, Bonn Xalle-Vittenberg, Misrning Ayn Shams singari dunyoning o'nlab nufuzli universitetlari bilan o'quv-ilmiy va xalqaro Tempus granti asosida hamkorlikda kadrlar tayyorlash sohasida aloqalar o'rnatildi.

## ZAMON BILAN HAMNAFAS

Umrini ilm-fanga bag'ishlagan olimni keyingi paytlarda nanotexnologiya sohasi jiddiy qiziqtirib qoldi.

“– Bu so'z 1974-yili yaponiyalik fizik Nario Taniguchi tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan. Nano qadimiy yunoncha “nonnos” so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida “pakana”, “mitti” degan ma'noni anglatadi. U biror narsaning milliarddan bir qismi. Men nanotexnologiyalar yordamida saraton va OITS singari xavfli kasalliklarga qarshi kurashish mumkinligiga ishonaman. Milliy ilm-fanimiz ravnaqida katta ahamiyat kasb etadigan nanotizimlar, nanomateriallar va nanoqurilmalarni yaratish davlatimiz iqtisodiyotining har tomonlama ravnaq toptirishning garovidir”.

Akademik ushbu sohani puxta o'rganib, “Mitti bunyodkorlar yoxud nanotexnologiyalar nima?” nomli kitob chop etdi. Ilmiy-ommabop ushbu nashr “Maktab kutubxonasi” rukni ostida 44 200 nusxada chop etilib, maktablarga tarqatildi.

Olim taklifiga ko'ra, O'zbekiston Milliy universiteti huzurida Nanotexnologiyalarni rivojlantirish markazi tashkil etildi va uni boshqarish mas'uliyati akademik Komil Muqimovning o'ziga topshirildi. Bu mehnatlar, tabiiyki, davlatimiz rahbari e'tiboridan chetda qolmadi. Zahmatkash akademik 2023-yili “Do'stlik” ordeni bilan taqdirlandi.

Komil Muqimov hayot yo'lidan voqif, u bilan yelkadosh shogirdlaridan biri ancha yil muqaddam aytgan gapi umri mudom izlanishlarda kechgan olim shaxsini ochib berishda xulosamiz bo'lar: “Ro'parasidan chiqqan talabaning salomiga qo'llarini ko'ksiga qo'yib alik oladigan Komil Muqimovdek rektor kamdan kam topiladi. Chunki domla har bir navqiron avlod timsolida yetuk olimni ko'radi”.

Obid QO'LDOSH suhbatlashdi.

Chaqiruv – 2025



## HAYOT MAKTABIGA

## ILK QADAM

Vatan mehri, avvalo, insonning o'z oilasi, uyi, mahallasi hamda tug'ilib o'sgan yurtiga mehr-muhabbatidir. Qadim-qadimdan Vatanga muhabbat yuksak insoniy fazilatlardan hisoblanadi. Fozil-u fuzalolarimiz ta'rif etgan "Vatanni sevmoq iymondandir" hikmati har vaqt o'z mohiyatini yo'qotmaydi. Jonajon Vatanimizni qo'riqlash, O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoyi bo'lish, albatta, eng oliy burch va qadriyat hisoblanadi.



Mualif suratga olgan

Ayniqsa, bu borada yosh avlodni yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash bugunning eng ahamiyatli mavzusidir. Shu sabab mamlakatimizda harbiy sohada qator islohotlar amalga oshirilib, Qurolli Kuchlar safida harbiy xizmatni o'tash istagidagi yigitlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda.

– Chaqiriluvchilarni saralash bosqichlari ham yakunlanib bormoqda, – deydi Surxondaryo viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi mutaxassisi Bahodir O'zbekov. – Bu yilgi chaqiruv mavsumida bir qator imkoniyatlar yaratildi. Zamonaviy yotoqxona, oshxona va hammomlarning doimiy ravishda ishlab turishi, muddatli harbiy xizmatni o'tash istagida bo'lgan yoshlar uchun

ayni muddao bo'lmoqda. Tibbiy ko'rikdan o'tish jarayonlari to'liq raqamlashtirildi. Bu esa qog'ozbozlikdan qochish va turli korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qilayotir.

Darhaqiqat, ayni kunlarda chaqiruv yoshiga yetgan yigitlarning salomatlik darajasini aniqlash jarayoni ketmoqda. Ma'lumki, harbiy xizmatni o'tayotgan shaxslar jismonan sog'lom, ruhan tetik va emotsional holatlarga qarshi o'zida immunitet shakllangan bo'lmog'i shart. Yangilik sifatida saralashdan o'tgan chaqiriluvchilar uchun harbiy psixologlar tomonidan turli mashg'ulotlar ham o'tilmoqda. Bunday mashg'ulotlarning o'tkazilishi yoshlar uchun kutilmagan vaziyatlarda o'zini yo'qotmaslik, qaror qabul qilishda to'g'ri yondashuvdan og'ishmaslikka qaratilgan. Qolaversa, harbiy psixologlarga

yuklatilgan vazifalar pirovardida chaqiriluvchilarning ruhiy salomatligi, muammo va tashvishlari, depressiya yoki boshqa ruhiy holatlari aniqlanadi. Agar yigitlar stressga ko'p o'rin beradigan bo'lsa yoki ruhiy holatida muammolar bo'lsa, ularga yordam berish uchun maxsus tadbirlar ko'rilmog'ida.

– Termiz davlat universitetining fizika yo'nalishini tamomladim. Kelajakda muddatli harbiy xizmatni o'tab, kontrakt bo'yicha xizmatimni davom ettirmoqchiman, – deydi chaqiriluvchilardan biri Murod Choriyev. – 2002-yili Angor tumanida tug'ilganman. Oiladagi 4 o'g'ilning ikkinchisiman. Harbiy bo'lishim uchun ota-onamning roziligini ham oldim. Qolaversa, bu kasbga bo'lgan qiziqishim bolaligimdan menga tinchlik bermagan. Universitetda o'qib yurgan kezarimda ham har tong

jismoniy mashg'ulotlarni kanda qilmadim. Maqsadim – o'qishni a'lo baholarga tamomlab, fizika yo'nalishida harbiy ofitser bo'lish va Vatanimga sadoqat bilan xizmat qilish. Bugun o'sha maqsadim sari ilk qadamni tashlayotganimdan juda mamnunman. Menga ishonch bildirgan ota-onamning yuzini yorug' qilishga va'da beraman.

Muxtasar aytganda, bu jannatmonand go'sha bizning uyimiz, Vatanimiz, eng muqaddas dargohimizdir. Uning tinchligi-yu osoyishtaligiga barchamiz birdek mas'ulmiz.

Ma'lumot o'rnida, tibbiy ko'rik va sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan yoshlar mart-aprel oyida harbiy qismlarga xizmat o'tash uchun jo'nab ketadi.

**Sherzod SHARIPOV,**  
"Vatanparvar"

## O'zbek yigiti – mustaqillik posboni

Nukus shahrida joylashgan O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Respublikalarining balandligi 55 metrga bo'y cho'zgan balandlikda o'rnatilgan davlat bayroqlari oldidagi maydonda chaqiruv yoshiga yetib, saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan bir guruh qoraqalpog'istonlik yoshlar armiya saflariga tantana bilan kuzatildi.



## MUQADDAS BURCH



Tadbirda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi Amanbay Orinbayev, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni polkovnik Rahmatullo Rahmonov, kuch tuzilmalari vakillari, keng jamoatchilik, yoshlar hamda chaqiriluvchilarning ota-onalari va yaqinlari ishtirok etdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarida muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun birinchilardan bo'lib yo'l olgan mard o'g'lonlarni kuzatish marosimida so'zga chiqqanlar ona yurtimiz

chegara sarhadlari ishonchli qo'llarda ekanini e'tirof etib, qoraqalpog'istonlik yoshlarga yuksak ishonch bildirdi. Ona Vatanni qo'riqlash har bir yigitning muqaddas burchi ekani, bunday mas'uliyatli vazifa eng sara o'g'lonlarga nasib etishi ta'kidlandi. Harbiy xizmatga jo'nab ketayotgan Qoraqalpog'istonning mard va jasur o'g'lonlariga omad yor bo'lishini tiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi Amanbay Orinbayev o'z nutqida bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan yoshlarga

berilayotgan katta e'tibor har jabhada namoyon bo'layotganini, birgina misol sifatida o'tgan yili 235 nafar qoraqalpog'istonlik yosh oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda o'zi to'plagan ballardan 50 foizini qo'shimcha sifatida beradigan hamda boshqa oliy ta'lim muassasalariga kvota asosida o'qishga kirishda yengillik yaratadigan harbiy qism komandirining imtiyozli tavsiyanomalariga ega bo'lganlarini e'tirof etdi. Ana shunday imkoniyatlardan unumli foydalanib, o'tgan yili imtiyozli tavsiyanoma olganlardan 5 nafar qoraqalpog'istonlik yigit oliy harbiy ta'lim muassasalariga, yana 149 nafari boshqa ta'lim dargohlariga o'qishga kirganini faxr va iftixor bilan tilga oldi.

Shundan keyin o'g'lonlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi harbiy-ma'muriy sektori tomonidan yuvinish anjomlari va shaxsiy gigiyena vositalari jamlanmasi hamda "Askarga eslatma" kitobchalari tarqatildi. Chaqiriluvchilar uchun bayramona dasturxon yozilib, milliy taomlar tortiq etildi. Yoshlar Nukus temiryo'l vokzalidan keng jamoatchilik va yaqinlari ishtirokida tantanali ravishda muddatli harbiy xizmatga kuzatib qo'yildi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**

## MANGUBERDI AVLODLARI YURT HIMOYASIGA OTLANDI

Xorazm viloyatining chaqiruv yoshiga yetib, belgilangan saralash bosqichlaridan muvaffaqiyatli o'tgan, sog'lig'i jihatidan harbiy xizmatga yaroqli, yurtimiz himoyasiga kamarbasta bo'lgan Jaloliddin Manguberdi avlodlari bo'lmish xorazmlik yoshlar ham viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi yig'in punktidan muddatli harbiy xizmatga kuzatildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarida muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun yo'l olgan mard o'g'lonlar va ularning yaqinlarini viloyat rahbariyati, kuch tuzilmalari vakillari hamda nuroniy va faxriylar qutlar ekan, hozirgi kunda mamlakatimizdagi rivojlangan ta'lim muassasalarida eng puxta bilim olganlar armiya saflariga kirib kelayotganini e'tirof etishdi.



Tadbirda ta'kidlanganidek, bugungi kunda O'zbekiston armiyasi yoshlarning irodasini toblaydigan, ularni o'z Vatani va xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalaydigan jasorat, matonat va hayot maktabi sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Shu boisdan saflarimiz yildan yilga zabardast, baquvvat, aqlan va ruhan toblangan yoshlar bilan butlanmoqda.

Tantanali tadbirning ochilish marosimida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni o'rinbosari podpolkovnik Lochinbek Rasulov yoshlarni va ularning ota-onalarini mana shunday unutilmas kun bilan tabriklab, Jaloliddin Manguberdi bobomizning munosib izdoshlari bo'lgan hamda Vatanni himoya qilishdek muqaddas va shu bilan birga sharafli burchni bajarishga shay turgan Xorazm elining o'g'lonlariga bukilmis iroda, kuchli matonat va kuch-g'ayrat tiladi.

Tadbirdan so'ng yoshlar Urganch temiryo'l vokzali orqali muddatli harbiy xizmatni o'tash uchun belgilangan joylarga jo'nab ketishdi.

**Alijon BOYMURATOV,**  
Qoraqalpog'iston davlat universiteti  
4-bosqich talabasi

Ko'rik-tanlov

# ILK BAHORNING go'zal an'anasi

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtida Mudofaa vazirligi qo'shinlari miqyosida "Balli, ayollar!" ko'rik-tanlovining yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi.



Asli ko'rik-tanlov shartlari beshta edi. Biroq mazkur shartlar bo'yicha bellashuvda g'oliblarni aniqlash birmuncha qiyin bo'lgani sababli oltinchi - "Bahribayt" sharti ham qo'shildi. Bellashuvni O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining katta yordamchisi adliya podpolkovnigi Gulchehra Tursunova, O'zbekiston davlat va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi xotin-qizlar komissiyasi raisi Dilduza Axunova, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi yetakchi mutaxassisi Maxpirat Zikirova, Respublika "Buvijonlar maktabi" a'zosi Nasibaxon Maqsudovadan iborat hakamlar hay'ati baholab bordi.

Qurolli Kuchlarimizda allaqachon eng go'zal an'anaga aylanib ulgurgan "Balli, ayollar!" ko'rik-tanlovini bilim yurti boshlig'i polkovnik Shavkatbek Mamajonov qutlov so'zlari bilan ochib berdi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli bayramona tadbirga alohida fayz bag'ishladi. Ko'rik-tanlovda quyi bosqichlarda muvaffaqiyatli



qatnashib, yuksak natijalarni qo'lga kiritgan o'n dilbar ayol - markazga bo'ysunuvchi harbiy qism va muassasalardan Feruza Qahhorova, Janubiy operativ qo'mondonligidan Go'zal Normurodova, Markaziy harbiy okrugdan Dilafroz Ergasheva, Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugdan Rushana Shodmonova, Shimoli-g'arbiy harbiy okrugdan Gulsanam Sultonova, Toifalangan obyektlarni

qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligidan Mavluda Shodmonova, Sharqiy harbiy okrugdan Marg'uba Razzoqova, Toshkent harbiy okrugidan Nargiza Jumamuratova, Maxsus operatsiya kuchlaridan Gulhayo No'monova, Havo hujumidan mudofaa qo'shinlari va Harbiy havo kuchlari qo'mondonligidan Dilso'z Do'stova mahoratlarini namoyish qildi. O'n ayolning har biri rang-barang chiqishlari

bilan yig'ilganlarning olqishiga sazovor bo'ldi. Ularning har biri haqida alohida to'xtalsak arziydi. "Bog'larga bahorni yetaklab kelgan ayol", deya shoir ham topib aytgan ekan-da! Tanlovning birinchi va eng qiziqarli shartlaridan biri "Men baxtiyor ayolman!" deb nomlanadi. Shu kuni o'nta porloq yulduz bizni sog'intirgan bahorning darakhilari kabi ko'rindi. Ko'ngillarga bahor, bayram

shukuhini olib kirdi. Shartga ko'ra, ayollar turmush o'rtoqlari ayni kunda xizmat burchini bajarayotgan viloyatning milliy kiyimida chiqdi. Har bir viloyatga xos milliy liboslar... Ular shu qadar rang-barang, yana har birida o'ziga xos hikmat aks etgan.

Mana shu chiqishning o'ziyoq ko'p narsalarni anglatadi. Bular oddiy liboslar emas, Vatan, Vatanning ranglari, asrlar



davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan millatning o'zligidir.

Yana bir shartning nomi "Mohir bekajon". Yanayam oddiyroq aytsak, ro'molcha to'qish. Qachonlardir qizlar ko'ngillarida eng go'zal orzular bilan bu ishlarni bajargan, yurak qo'rlarini bag'ishlaganlar. Kuyovlar ham sevgi-muhabbat ramzi bo'lgan bu ro'molchalarni qadrlagan.

Shartning bajarilishini kuzatib turgan polkovnik Shavkatbek Mamajonov biroz hayajon bilan: "Yoshligimizni yodga soldi..." deganida go'zal odatlarimizdan biri o'tmishga aylanganini his

qildim. Bugunlar hatto kashtalar ham urfdan qoldi, kelinchak uyining muhtasham bezagidan deyarli foydalanilmaydi, afsus.

Qiziq tomoni shundaki, yosh ayollar bu shartni juda maromiga yetkazib bajardi. Seplarida bunday ro'molcha bo'lmasa ham. Balki, Mudofaa vazirligi bo'lim bosh mutaxassisi Zulfiya Mansurovaning: "Bu shartning mukammal bajarilishi turmush o'rtoqlaringizga bo'lgan muhabbatning nechog'li yuksak ekanini bildiradi", degani sabab bo'ldimikan?!

"Darts" degan shartda 3 metr masofadan turib nayza

otib, bellashildi. Hayrat! Shu shartda ham bir-birlariga bo'y bermadilar-eyy! Aytishlaricha, bunday mashq stressni yo'qotar emish.

"Ayol - go'zallik timsoli" shartida milliy taqinchoqlardan foydalanib, bayramona soch turmagini yaratdi. Bu bir qarashda uncha murakkab shart emasdek, ammo talab etilayotgani zamonaviy soch turmagi emas-da! O'tmish ayol-qizlar tarixini bilish kerak. Tarixni bilish uchun o'qish kerak.

Nima deb o'ylaysiz, eplay oladilarmi? Eplaganda qandoq,

yana bir-birini takrorlamasdan uddaladilar.

Ularni kuzatar ekanman, bular nimani bilmaydi, deb savol qo'ysak, to'g'riroq bo'lar ekan, degan qarorga keldim. Har biri sarishtali beka, ona, rafiqa, biri tadbirkor, biri muallima, yana jonli ovozda qo'shiqlar kuylashadi, ayniqsa Gulhayo No'monova chanqovuz chalib, yuraklarni junbishga keltirdi.

Tadbir avvalida bilim yurti boshlig'i tadbir ishtirokchilarini qutlar ekan, harbiy xizmatchilarning rafiqalariga: "Bizni qo'llab-quvvatlab kelganingiz uchun

rahmat!" deganida, bu bayram va tantanalardagina aytiladigan e'tirof emasligini ular hayoti bilan yaqindan tanish inson sifatida angladim. Ayollarning ilk chiqishlarida sog'inch to'la ko'ngil kechinmalarini she'rga solganlarini ko'rib, tinglab, ular bundan ham yuksak e'tibor va e'tirofga loyiq ekanini his qildim.

Tanlov o'z nomi bilan tanlov. Maftunkor ishtirokchilarning har biri g'oliblikka da'vogar edi. Biroq bu uch kishiga nasib etdi.

Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligidan Mavluda Shodmonova faxrli uchinchi o'rinni egalladi. Janubiy operativ qo'mondonlik qo'shinlaridan Go'zal Normurodovaga ikkinchi o'rin nasib etdi. Birinchi o'ringa esa 48 ball bilan Shimoli-g'arbiy harbiy okrugdan Gulsanam Sultonova munosib topildi.

Barcha ishtirokchi va g'oliblarga Mudofaa vazirligi, O'zbekiston davlat va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasining qimmatbaho esdalik sovg'alari va diplomlar topshirildi.

**Inobat IBROHIMOVA,**  
"Vatanparvar"

Bir devor tarixi

# BUYUK XITOIY DEVORIGA BO'YLASHGAN KANPIRAK

**Mazkur maqolani qoralashimga aksariyat vatandoshlarimizning Buyuk Xitoy devoriga "mahliyo" bo'lgani holda qadimda xuddi o'shanday mudofaa inshootlari yurtimizda ham mavjud bo'lgani va uning qoldiqlari bugungi kunga qadar saqlanib qolganidan butunlay bexabarligi va shuningdek ayrim hamyurtlarimizning bu yodgorlikka nisbatan o'fa loqaydligi turtki bo'ldi.**

Ma'lumki, quyoshli O'zbekiston – jahon sivilizatsiyasining qadimgi markazlaridan biri hisoblanadi. O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston xalqi tomonidan boy hamda o'ziga xos madaniyat yaratilgani bugungi kunda bashariyatga ayon haqiqat. Shu jumladan, ikki daryo oralig'idan o'rin olgan qadimgi manzilgohlarni tashqi hamladan ihotalash niyatida tiklangan mudofaa inshootlarining takomili hamda xususiyati ijtimoiy rivojlanish darajasining muhim ko'rsatkichi sifatida doim tilga olib kelinadi.

Dunyoda qadim Xitoy devorini bilmagan va u haqda ma'lum bir tasavvurga ega bo'lmagan odam kam topiladi. Kamina xizmat yuzasidan xitoylik sayyohlar bilan ko'p bora uchrashganman va ular o'z qadriyat, qadimiyatlari bilan haddan ziyod faxrlanishlariga shaxsan guvoh bo'lganman. Ammo ularning aksariyati qadim devorlar tizimi faqat Xitoyga xosdek fikr yuritadi. Tabiiy, shunda har qanday kishining o'z Vatani tarixi, ko'hna obidalari hamda devorlar tizimi bilan maqtangisi, aniqrog'i, g'ururlangisi keladi. Ana shunda haqli bir savol o'z-o'zidan yuzaga qalqiydi: **"Xo'sh, bizda xuddi Buyuk Xitoy devoridek olis ufqlar sari bo'y cho'zgan ko'hna devorlar bo'lganmi?"**

Agar siz sinash uchun, ayni shu savol bilan kishilarga murojaat qilib ko'ring, ko'pchilik yelka qismoqdan nariga o'tmaydi yoxud ko'hna Xiva devorlarini ro'kach qiladi. Biz esa qadim shahar devorlarini emas, ma'lum bir vo'ha yoxud mamlakatlar sarhadini belgilab, ular mudofaasini ta'min etuvchi devorlar tizimini nazarda tutmoqdamiz. Kamina ona yurti qadamma-qadam kezib chiqqan kishi sifatida ko'hna Xorazm diyorida qadimiy mudofaa devorlariga juda ko'p bor duch kelganman va ular tarixi va o'ziga xosligi to'g'risida zangori ekran orqali ko'p va xo'p hikoya qilganman. Men o'sha kezlardayoq qadimgi vo'ha devorlariga, ya'ni ularning mavjudligi va tarixiga juda-juda qiziqardim. Bir kuni navoiylik taniqli jurnalist Rahim Maqsudov menga qo'ng'iroq qilib qoldi va fe'liga xos bosiqlik bilan dedi: **"Eshitishimcha, sizni ko'hna vo'ha devorlari juda qiziqtirar ekan. Shuning uchun vaqt topib, bizning Qiziltepa tumaniga bir kelib ketsangiz".**

Navoiy viloyati bo'ylab qilingan navbatdagi safarimizda birinchi qilgan

ishimiz Rahim Maqsudovni qidirib topish bo'ldi. U kishi bizga ortiqcha gapirmay, tumanning shimoli-sharqiy, janubi-g'arb tomonidagi mavzelerde mahobatli tarzda ko'kka bo'y cho'zgan past-baland va uzuq-yuluq holda olis-olislariga cho'zilib ketgan qadimiy devor yoniga boshlab keldi. **Qulochini keng yozgan faxr-iftixor bilan dedi:** "Sizni qiziqtirayotgan qadimiyat mana shu! Bu qadimiyat tarixchi olimlarimiz tomonidan Kanpirak devor, yerli aholi tarafidan esa "Kampirdevol" deb ataladi. Bu istekomning farqli jihati bir necha o'nlab emas, bir necha yuzlab kilometr ga cho'zilib ketgan..."

**BIZ MO'JIZAGA DUCH KELGANDAY,** yuzlab kilometr ga cho'zilib ketgan qadim devorning past-baland qoldiqlarini zo'r qiziqish bilan o'rganib, ishtiyoq bilan tasvirga ola boshladik. Tarixchi va arxeolog olimlar bilan hamkorlikda ko'hna Xorazm hududidagi qal'a va qo'rg'onlarni ko'zdan kechiraverib, ancha-muncha pishib ketgan emasmizmi, Rahim Maqsudov ko'magida tagzamini shag'al aralash tuproqdan iborat bo'lmish bu devorning eni, ko'p emas, kam emas, o'n uch metr dan ziyodligini, asosi paxsadan, ayrim o'rinlari esa to'g'ri to'rtburchak shakldagi yirik xom g'ishtdan ko'tarilganini aniqlashga muyassar bo'ldik. "Eni o'n uch metr bo'lmish devorning balandligi o'n besh-yigirma metr bo'lishi tabiiy hol, – dedi Rahim Maqsudov bu haqdagi savollarga javoban, so'ng esa alohida jiddiyat bilan: "Bu Kanpirak devori O'rta Osiyo mudofaa istehkomlari me'morchiligining eng nodir namunalaridan biri sifatida o'rganilmoqda. Bu inshoot qadimshunos olimlarimiz tomonidan "vo'ha devori" deb ham ataladi", dedi.

**VO'HA DEVORI.** Xo'sh, bu atama nimani anglatadi? Bu – Kanpirak devori ma'lum bir shahar yoki qal'a mudofaasi uchun emas, balki butun vo'ha mudofaasi maqsadlari yo'lida xizmat qilganini, o'z navbatida, o'zining me'moriy-qurilish uslubi jihatidan jahonga mashhur Xitoy devoriga o'xshab ketishi bilan o'ziga xos me'moriy obidalar sirasiga

kirishini anglatadi. Endi uning yuzaga kelish tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, bu

inshoot o'troq aholi yashaydigan vohalarni ko'chmanchi qabilalar hujumidan himoya qilish maqsadida barpo etilgan. Va nechun u Kanpirak devor deb ataladi? Bu savolga Rahim Maqsudov quyidagicha izoh beradi: Kanpirak devor iborasi "qazilgan choh" degan ma'noni anglatadi. Ammo talaffuzda "n" bilan "m" almashinuvi kuzatiladi. "Pir" bo'g'ini esa qadimgi payrya – "aylana", "o'rov" ma'nosini, "kanpir" so'zi esa "xandaqli devor" degan ma'noni bildiradi. "Devor", ya'ni "kanpir" so'zi keyinchalik o'zining tub ma'nosini yo'qotib bo'lgandan so'ng qo'shilgan: Kanpirak devor!

**KANPIRAK DEVOR** yurtimiz hududida yagona bo'lmagan, arxeolog va tarixchi olimlarimiz fikriga ko'ra, ilk o'rta asrlardayoq ularning soni beshta bo'lgan ekan. Birinchisi, qadimgi Buxoro vohasidagi barcha shahar va qishloqlarni o'z bag'riga qamrab olgan Kanpirak devor. Ammo bu o'rinda bir-biriga zid ma'lumotlarga duch kelish ham mumkin. Tarixchi Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asariga nazar solsak, mazkur istekom 782–831-yillarda barpo etilgani aytiladi. Ammo o'ninchi asrda yashab o'tgan arab tarixchisi va sayyohi Mas'udiy bu fikrni inkor etib, mazkur inshoot Sug'd hukmdorligi paytida, ya'ni V-VI asrlarda barpo etilgan deydi. Shunga ko'ra, tarixchi olimlarimiz ko'pgina qadimiy inshootlar bir necha martalab qayta tiklanish pallalarini boshdan kechirishini nazarda tutib, o'z qarashlarini arxeologik olimlar izlanishlari bilan mustahkamlab, Narshaxiy bergan ma'lumotda istekomning qayta tiklanish davri tilga olingan, degan fikrni ilgari suradi.

Chunonchi, Mas'udiy qaydnomasida tilga olingan dastlabki ko'hna devor Narshaxiy yozgan Kanpirak devorga nisbatan kichikroq maydonni egallagan. Bu devorning uzunligi esa 336 km.ni tashkil etgan. Bu borada Rahim Maqsudov shunday deydi: "Buxoro Sug'diga qarashli Karmanadan cho'l hududi bo'ylab hozirgi Kogon tumanining markaziga qadar, shuningdek shimoli-g'arb, shimol va shimoli-sharq tomondan Buxoro vohasi ushbu mudofaa devori bilan o'rab olingan. Bu devor shimoli-g'arbda Varaxsha (*Jondor tumani*), undan Subuktepa, Bo'rntepa (*Romiton*),


Xo'jaqlitepa (*Peshko*), sarhadlari bo'ylab o'tib, Shofirkon kanalining chap qirg'og'i bo'ylab o'tgan va Abu Muslimtepa borib tutashgan. Va shuningdek, Hazora darasi bo'ylab yana bir ko'tarma devor Konimex vohasini kesib o'tgan va Karmana tumani markazida Qoratovga borib taqalgan. Mana shu sxemaga qarab, mazkur Kanpirak devorning necha yuz chaqirimga cho'zilganini o'zingiz tasavvur qilib olavering..."

**KANPIRAK DEVOR** shunchaki devor tizimi emas, uning yo'nalishi bo'ylab har bir farsax (6-8 km) masofada shahar yoki qishloqlar, jumladan rabotlar bunyod etilgan. "Mazkur manzilgohlar nechun bunyod etilgan, degan savol tug'ilishi tabiiy, – deydi Rahim Maqsudov. – Bundan shu narsa ayon bo'ladiki, qadimgi ajdodlarimiz shunchaki devor ko'tarmagan, balki har bir tosh-u kesakni, har bir g'isht hamda changal loyni reja asosida ishlatgan, oqibatda mudofaa devorining tarkibiy qismi bo'lmish bu manzillar ham turarjoy, ham chegara qo'rg'onlari vazifasini o'tagan. Bundan tashqari, devor bilan o'rab olingan har bir qo'rg'on va hudud uchun maxsus darvozalar, shuningdek qo'rg'onlar orasidagi masofaning har bir chaqirimida harbiy burjlar bunyod etilgan. **Burjlardan kun-u tun soqchilar arimagan. Bundan shu narsa ko'rinib turibdiki, Kanpirak devori, xuddi Xitoy devori kabi ko'p tarmoqli, qudratli mudofaa istehkomi sifatida faoliyat ko'rsatgan.**

**SHU O'RINDA** burjlar to'g'risida xiyol to'xtalar bo'lsak, burjlar mudofaa inshootlarining o'ta muhim elementlaridan biri bo'lib mudofaa devorlari perimetri bo'ylab odatda devordan baland bo'lgan holda tashqariga turtib chiqqan qurilmadir. Shunga ko'ra, burjlar hech qachon bir xil tipda bo'lmagan, joylashish tarhiga qarab, ular turli ko'rinishda: to'g'ri burchak, kvadrat va oval shaklida bo'lgan. Tarhi yarim oval shaklidagi burjlar esa eng qadimgi tiplarga kiradi. Kanpirak devordagi burjlar qanday shakl-shamoyilga ega bo'lgan, chamasi, bu hali olimlarimiz tomonidan to'la-to'kis o'rganilmagan. Ammo olimlarimiz, arxeologik tadqiqotlar natijasiga ko'ra, **Kanpirak devorning ilk bosqichi – V asrning oxiri va VI asrning birinchi yarmi bilan bog'liqligini to'la isbotlab berdi.**

Bu esa, tabiiyki, quyidagi





savolning yuzaga kelmog'iga sabab bo'ladi: mazkur istehkom bunyod etilgan davrda tarixiy jarayon qanday bo'lgan, negaki bu kabi istehkomlar sababsiz yuzaga kelmaydi va ularning bunyod etilishida voqelik hamisha muhim sabab rolini o'ynaydi.

Bu savolga javobni tarixchi olimlarimiz Q. Rajabov, B. Qandov, I. Shaymardonov va O. Normatov qalamiga mansub **"Jahon tarixining muhim sanalari"** kitobidan qidiramiz. Ushbu kitobning 47-48-betlarida shunday deyiladi: milodiy eraning V asrida O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Afg'oniston hamda Shimoliy Hindistonning katta qismida qudratli Eftaliylar davlati tashkil topadi. Bu davlat ayrim manbalarda Oq xunlar davlati deya tilga olinadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar fikricha, eftaliylar Sirdaryo vodiysida istiqomat qilgan, dastlabki hayoti ko'chmanchi chorvador qabila tarzida bo'lgan, keyinchalik esa janub tomonga yo'nalgan. Bu davlat eftaliylar, eftalilar, xaytallar, abdallar, ye-da kabi turli nomlar bilan atalgan eftaliylar qabilalari ittifoqiga asos solgan.

**420-579-YILLARDA** faoliyat ko'rsatgan Eftaliylar turkiy davlatining poytaxti avval Buxoro yaqinidagi Poykend va Varaxsha shaharlari, so'ngra Hindistondagi Shakala shahri (*hozirgi Sialkat*) bo'lgan. Oltinchi asrning boshlari va o'rtalarida Eftaliylar davlati uchun eng katta xavf Eron Sosoniylar davlati hamda Buyuk Turk xoqonligi tomonidan tug'dirilgan. Oxir-oqibat milodiy eramizning 563-567-yillar orasida Buxoro ostonasida turklar bilan eftaliylar o'rtasidagi jangda eftaliylar mag'lubiyatga uchragan. Eftaliylar davlati 579-yilda butunlay barham topgan. Bu kabi tarixiy jarayonlar mudofaa inshootlarining yuzaga kelmog'iga muhim turki rolini o'ynamay qolmagan, albatta. **Kanpirak devorning yana bir muhim tarixiy jihati u Buxoroning V-VI asrlardagi chegaralarini to'la aniqlab beruvchi yagona inshoot sifatida g'oyat qadrlidir.**

Tarixchi olimlar ta'biri bilan aytganda, bu ulkan hudud o'z davrida eng an'anaviy, mumtoz davlatchilik kurtaklari mavjud bo'lgan yirik madaniy o'lka sifatida faoliyat ko'rsatgan. Va shuningdek, Kanpirak devor ham yagona bo'lmagan, "Jahon tarixining muhim sanalari"

kitobida qayd etilishicha, yurtimiz hududida ular soni bir nechta bo'lgan. Fursatdan foydalanib, ularni birma-bir sanab o'tamiz: ikkinchi Kanpirak devor VIII-IX asr boshlarida tiklangan bo'lib, uning uzunligi 120 km tashkil etgan va u qadimgi Sug'd diyorida qomat kerib turgan. Uchinchi Kanpirak devor esa hozirgi O'ratepa, Zomin va Jizzaxni o'z ichiga olgan qadimgi Ushrushona vohasida qad ko'targan. To'rtinchi Kanpirak devor Farg'ona vodiysi g'arbida VIII asr oxiri va IX asr boshlarida barpo etilgan. Toshkent vohasining shimol tarafida bunyod etilgan beshinchi Kanpirak devor esa Xo'jakentdan Sirdaryogacha cho'zilgan.

Xullas, VIII-IX asrlarda, ya'ni O'rta Osiyoda arablar hukmronligi davrida Buxoro, Sug'd va Ushrushona vohalari tevaragidagi barcha Kanpirak devorlar bir-biriga tutashtirilib, yagona mudofaa tizimi vujudga keltirilgan. Tag'in eslatib o'tamiz, qadimiy Kanpirak devorlar ko'chmanchi qabila va elatlarning o'troq dehqonchilik vohalariga bosqinchilik, talonchilik yurishlariga qarshi to'siq hosil qilish uchun barpo etilgan va mazkur mudofaa tizimining yo'nalish chiziqlari Buxoro, Markaziy Sug'd, Ushrushona, Toshkent va G'arbiy Farg'ona vohalari bo'ylab o'tgan. Gapning qisqasi, qadimda yurtimizni tevaraklab, uning mudofaasini ta'minlab turgan Kanpirak devorning nechog'li uzunligini, mana, o'zingiz bemalol tasavvur qilib olavering.

**BU KO'HNA DEVOR** qoldiqlari joylarda hozir ham mavjud. Mazkur istehkomning ma'lum bir qismlarini Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanida va shuningdek boshqa hududlarda ham uchratish mumkin. U ba'zi joylarda ko'hna devor, ba'zi o'rinlarda esa tepalik shaklida hali-hanuz ko'kka bo'y cho'zib turibdi. Biroq o'ta achinarli jihati shundaki, bu noyob tarixiy obidaga qiziquvchilar deyarli yo'q, desak ham bo'ladi. Bu borada Rahim Maqsudov achinish bilan shunday degandi: "Olisdagi Xitoy devorining nafaqat mavjudligini, balki uning tarixini, kimlar tomonidan qachon va nima sababdan bunyod etilganini misoli besh qo'lday bilamiz-u, lekin tarixiy qadriyat va ahamiyati undan aslo kam bo'lmagan osor - Kanpirak devorni bilmaymiz, aniqrog'i, bu tarixiy obidaga nisbatan juda loqaydmiz. Chamamda, "Oldingdan

oqqan suvning qadri yo'q", deb shuni aytsalar kerak. Buning aksi o'laroq biz tevarakka hamisha teran nigoh bilan boqishimiz kerak. Buning uchun esa ko'p kitob o'qimog'imiz lozim. Boisi kitob aqlni peshlabgina qolmay, idrokni charxlaydi. Ana shunda tevaragimizdagi obidalariga ko'hna devor yoxud oddiy tepalik deb emas, Vatanimiz tarixining oltin sahifasi sifatida qaraymiz va loqaydlik illatidan qutulamiz..."

**YANA BIR GAP**, bu yoqda ona tabiat ham tek qarab turgani yo'q - zimdan o'z amalini qilmoqda, ya'ni tuproqdan bunyod etilgan qadimiyatni qayta tuproqqa aylantirish ilinjida oddiy yomg'irni jalaga, yelni bo'ronga, tungi shudringni qorga o'girib, asrlar davomida bor kuchi bilan harakat qilmoqda. Biroq ming yillikning ancha narisida yashab o'tgan va ushbu tarixiy inshootni tiklash ishida qatnashgan me'morlarimiz haqiqatan ham o'z ishinings ustalari bo'lgan. Tabiat harchand urinmasin, Kanpirak devorning ayrim qismlari haligacha qilt etmay turibdi. Agar u yolg'iz tabiat izmiga tashlab qo'yilmay, e'tiborga olinsa, Vatanimiz tarixining yana bir oltin sahifasi o'z sir-asrorini bayon etgan bo'lardi.

Endi yana moziyga qaytamiz-da, hikoyamizni davom ettiramiz. Odatda, mavjud narsalar vaqti-vaqti bilan o'z mavqeyi va ahamiyatini yo'qotganday, ko'hna obidalar ham bu jarayonni o'z boshlaridan kechirib turadi. Bu tarixiy hodisa Kanpirak devorga ham begona emas, u o'rta asrda ilk bor bir muddatga o'z mavqeyini yo'qotgan. Buning sababini tarixchi A. Otaxo'jayevning "Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug'd munosabatlari" kitobida quyidagicha izohlaydi: turk xoqonligi davrida xoqonlikning zodagonlar qismi cho'l-dasht hududlarida yashagan esada, xoqonlik mahalliy sug'diy aholi hamda ko'chmanchilar o'rtasida tinchlik, hamjihatlik aloqalarini o'rnatish, savdo-sotiqni rivojlantirishdan juda manfaatdor bo'lgan. Turk xoqonligi davrida hozirgi O'zbekiston va O'rta Osiyo hududida mavjud bo'lgan o'n beshga yaqin katta-kichik davlatlarning mustaqilligi cheklanib, ular xoqonlikka rasman bo'ysundirilgan va yillik boj-xirojlar to'lattirgan.

Bu katta-kichik davlatlar, ya'ni Buxoruxudotlar podsholigi, Vardonxudotlar podsholigi, Samarqand Sug'di va boshqalar Sug'd konfederatsiyasi bo'lib uyushgan va Buyuk Turon xoqonligi tarkibiga kirgan. Xoqonlik savdosotiqdan, ayniqsa ipak savdosidan katta foyda ko'rgani sabab Sug'd savdogarlariga katta imkoniyatlar yaratilgan, ularga dunyoning eng uzoq o'lkalarida ham savdo manzilgozlari qurib berilgan. Bu tarixiy jarayon paytida, turgan gap, Kanpirak devorga ehtiyoj sezilmagan va vaqtinchaga, ya'ni arab bosqiniga qadar u o'z ahamiyatini yo'qotgan.

**XULLAS, VII ASRNING CHORAGI VA VIII ASRNING BOSHLARIDA** tarix g'ildiragi bejo aylanib, Turon hududiga yana bir siyosiy kuch - arablarning istilochilik yurishlari boshlandi. Xuroson noibi Qutayba ibn Muslim (660-715)ning dastlabki urinishlaridan so'ng **VIII asr boshlarida Movarounnahr, jumladan Buxoro ham bosib olinadi va shahar aholisini islomlashtirish boshlanadi.** Bu davrda islomga kirgan madaniy voqa aholisi va islom dinini qabul qilmagan cho'l-dasht ko'chmanchi ahli o'rtasida qarama-qarshilik kuchayib, Kanpirak devorga yana ehtiyoj tug'iladi va u tiklanadi. Ammo IX asr boshlarida Movarounnahr va Xurosonda Somoniylar sulolasi hokimiyat tepasiga kelgach, mazkur inshoot tag'in soyada qoladi va o'z ahamiyatini to'la yo'qotadi.

Qissadan hissa shundaki, yurtimizdagi mangulikka daxldor qadimiy arxeologik obidalar tariximizning tilsiz guvohi sifatida xalqimizning boy o'tmishi haqida hikoya qilib, bu zaminning naqadar muqaddas ekani hamda bu yurt qadimiy sivilizatsiya Vatani bo'lganini olamga ko'z-ko'z qilib kelmoqda. Bu esa barchamizning zimmamizga nurli O'zbekiston tarixini yanada teranroq o'rganish, tiklash va moziyning hali ochilmagan sirli sahifalarini ochishdek sharafli vazifani yuklaydi. Biz Kanpirak devorni tarix sahifalaridagina emas, balki ona zamin ko'ksida muqaddas tarixiy obida sifatida mangu saqlab qolmog'imiz lozim.

## Jamiyat gultoji

# Ayol borki, olam munavvar!

Ayol jamiyat gultoji, borliq ko'zgusi, millat tarbiyachisidir. Ayol baxtli bo'lsa, jamiyat ham baxtli bo'ladi. Zero xotin-qizlarini e'zozlagan, qadrlagan yurtning buguni va ertasi farovon bo'lishi shubhasiz!



Shu bois so'nggi yillarda mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida xotin-qizlarimizning faolligini yanada oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, xotin-qizlarga munosib shart-sharoitlarni yaratib berish, ularni hayotdan rozi holda baxtli yashashlarini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlarida ham ayol harbiy xizmatchi

va ishchi-xizmatchilar, shuningdek harbiy xizmatchilarning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, harbiy jamoalar va oilalardagi axloqiy-ruhiy muhitni yanada mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan tizimli ishlar va erishilayotgan natijalar samarasi o'laroq bugungi kunda ayol harbiy xizmatchilarning bir guruhi "Sodiq xizmatlari uchun" va "Shuhrat" medallari, "To'maris" hamda "Mo'tabar ayol" ko'krak nishonlari bilan taqdirlanib kelmoqda.

Chegara qo'shinlari harbiy gospitalida o'tkazilgan "Ayol borki, olam munavvar!"



qizlarimiz aynan onalarini ko'rib, ularning kiyinishlari, yurish-turishlaridan o'nak oladi. Shu orqali ma'naviyat va madaniyatimiz shakllanadi. Harbiy shifokorlarimiz bilan ana shunday masalalarda, qolaversa ayol salomatligi sog'lom avlod, sog'lom ko'lmillat shakllanishining kafolati ekani xususida fikrlashdik, - deydi professor Jamila Shermuhammedova.

Tadbir davomida ishtirokchilar milliy g'urur va o'zlikni anglash aynan milliy liboslar targ'ibotidan boshlanishi haqida ham suhbat qurib, yurtimizda bu borada keng ko'lamli ishlar olib borilayotganini mamnuniyat bilan ta'kidladi.

- Biz qaysi kasb egasi bo'lishimizdan qat'i nazar, eng avvalo, farzandlarimiz tarbiyasiga mas'ul - Ona ekanimizni aslo unutmasligimiz kerak. Bugungi tadbirni o'tkazishdan ko'zlangan asosiy maqsad ham, ayollarimizning millat tarbiyachisi sifatida jamiyat va oilasi oldidagi mas'uliyatini yanada oshirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir, - deydi tadbir tashkilotchisi podpolkovnik Zumrad To'rayeva.

Hayotiy misollar, bahoriy tarovat va fikr-mulohazalarga boy tarzda o'tgan tadbir barchaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

## Vatanparvarlik



## Yangi O'zbekiston qalqonlari

Navoiy viloyatining Zarafshon shahridagi 9-umumta'lim maktabida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlari tashabbusi bilan "Yangi O'zbekiston qalqonlarimiz!" mavzusidagi vatanparvarlik tadbiri tashkil etildi.

Unda so'z olganlar bugun mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarini qamrab olayotgan jadal islohotlar, Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar yurtimizda harbiy xizmat obro'-e'tiborini, xalq va armiya yakdilligini, yoshlarimiz qalbida milliy armiyamiz bilan faxrlanish tuyg'usini, shuningdek Vatan himoyachisidek oliyjanob kasbga hurmat-ehtirom hissini kundun kunga oshirib borayotganini alohida ta'kidladi.

Tadbir davomida o'quvchi-yoshlar tomonidan milliy urf-odat va an'alarimizga asoslangan holda tayyorlanib, namoyish etilgan sahna ko'rinishlari barchaga birdek manzur bo'ldi.

Shuningdek, tadbirga sport sohasida yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelayotgan bir guruh yoshlar ham taklif etilib, ular o'z tengqurlariga erishayotgan yutuqlarining sir-asrorlari haqida gapirib berdi.

Ertamiz egalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ana shunday tadbirlardan yana biri Surxondaryo viloyatidagi harbiy qismda "Vatanparvarlik - ezgu fazilat!" shiori ostida tashkil etildi.

Uch avlod uchrashuvi shaklida o'tkazilgan tadbir davomida Muzrabot tumanidagi 32-umumta'lim maktabi o'quvchi-yoshlari, harbiy xizmatchilar va faxriylar ishtirok etdi.

Unda so'z olgan ustoz faxriylar, tinchlikning naqadar ulug' ne'mat ekanini, bugungi osuda hayotimizni ko'z qorachig'iday asrab-avaylash esa har bir fuqaroning muqaddas burchi sanalib, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismonan sog'lom, aqlan yetuk, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol topishi yurt tinchligini asrashda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

- Bunday uchrashuvlarni tez-tez tashkil etib turishga harakat qilamiz. Chunki ko'pni ko'rgan, tajribali ustozlarimizning fikr-mulohazalaridan o'zimizga ibrat olsak, o'quvchi yoshlarimizning shijoati, qiziquvchanligi, sohani o'rganishga bo'lgan intilishi va harbiylikka havasi bizga kuch-g'ayrat bag'ishlaydi. Zero izdoshlarimizni bosqichma-bosqich shakllantirib, harbiy xizmatga tayyorlab borish, milliy armiyamizning ertasi bugunidan-da qudratliroq bo'lishini ta'minlaydi, - deydi kapitan Husniddin Hakimov.

Albatta, sarhadlarimiz posbonlari tomonidan butun respublikamiz bo'ylab chegaraoldi hududlaridagi yoshlar ishtirokida o'tkazilayotgan shu kabi tadbirlar tobora taraqqiy etib borayotgan Yangi O'zbekistonimizning mustahkam qalqonlarini tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.





Alplar safidagi ayollar

# E'ZOZGA YOR HAMSHIRA



Yakshanba. Borliq noz uyquda. Tong sahar Hulkarning telefoni jiringladi. "Tinchlikmikan? – hushyor tortdi u. – Gospitaldan bo'lsa kerak", xayolidan o'tkzdi va javob berishga shoshildi:

– Alo, eshitaman.  
– Mingliyeva, salomatligingiz yaxshimi?  
– gospital jarrohlik bo'limi boshlig'ining ovozi eshitildi. – Uzr, dam olish kuni bezovta qilyapman. Shoshilinch operatsiya qilinadigan bemor keldi. Tez yetib kelmasangiz bo'lmaydi.

– Sizni tushundim, hozir yetib boraman...  
Qurolli Kuchlar xizmatchisi Hulkar Mingliyevaning Mudofaa vazirligi Termiz harbiy gospitalida faoliyat yuritayotganiga 26 yil bo'ldi. U gospital jarrohlik bo'limidagi tajribali hamshiralardan biri sifatida o'z vazifasiga mas'uliyat ila yondashadi, tunmi, tongmi, kasbi bilan bog'liq chaqiriqlarga kerakli paytda hozir-u nozir.

Darhaqiqat, gospitaldagi harbiy tibbiyot xodimlari qatorida Qurolli Kuchlar xizmatchilarining ham katta o'ri bor. Hulkar harbiy shifoxonaning jarrohlik bo'limida ish boshlaganida 21 yoshda edi. Surxondaryo viloyatining Angor tumanidagi Qorasuv qishlog'ida voyaga yetgan qahramonimiz Termiz shahri tibbiyot bilim yurtini bitirib, tuman poliklinikasida ish boshladi. Jarrohlik amaliyotiga qiziqqan hamshira qiz harbiy gospitalning jarrohlik bo'limida ishlashga qaror qilganida ota-onasi Sayfullo aka va

Mayram opa qarshilik qilmadi. Ular olovqalb qizlarining qat'iyatiga ishonardi. Faqat masofa ancha uzoq.

1999-yilda Hulkarning maqsadi amalga oshdi, u gospital jarrohlik bo'limiga ishga kirdi. Kasbida fidoyi qizga yo'l uzoqligi ta'sir qilmadi, 2 yil davomida qatnab ishladi. Keyin esa Termiz shahriga kelin bo'lib tushdi. Turmush o'rtog'i Otabek Bozorov harbiy xizmatchi bo'lgani uchun Hulkarning kasb mas'uliyatini to'g'ri tushundi.

## KASB ZAHMATI

Shifoxonadagi jarrohlik xonasiga hech ko'zingiz tushganmi? Jarrohlik stoliga ko'z tashlashning o'zi ruhiyatingizga ta'sir etadi. To'g'ri, shifokorlar uchun bu oddiy holdir. Ammo yengilmi, og'irmi, jarrohlik amaliyotida inson hayoti garovda turadi. Mana shu mas'uliyatli bosim ostida bemor tepasida soatlab faoliyat yuritish shifokorlar uchun oson emas. Jarrohning yordamchilari bo'lmish hamshiralalar esa o'ta hushyor va e'tiborli bo'lishi shart.

– **Faoliyatingiz davomida eng uzoq davom etgan jarrohlik amaliyotini eslay olasizmi?**

– Albatta, 2000-yili Sariosiyo tumanidagi terrorchilarga qarshi harbiy harakatda yarador bo'lgan harbiy xizmatchini tungi soat o'ndan ertalab beshlargacha operatsiya qilishga to'g'ri kelgan.

– **Jarrohlik jarayonidan keyingi vazifangizga to'xtalsangiz.**

– Bemor operatsiyadan chiqqanidan keyin mas'uliyatimiz yanada oshadi. Uning jarohat joyiga kuniga ikki mahal dori qo'yishga, ya'ni bog'lovlarini almashtirishga to'g'ri keladi. Bu jarayon ba'zida soatlab davom etadi. Bemor qancha sog'ayib borsa, biz shuncha xursand bo'lamiz.

– **Jarrohlik bo'limi hamshirasi sifatida zimmangizda yana qanday mas'uliyat bor?**

– Oilangizdan bir qadar uzoq bo'lasiz. Ishda ushlanib qolishingiz, dam olish kunlari ham chaqirib qolishlari mumkin. Qanday vaziyat bo'lmasin, kasbimni sevganim uchun vazifamni har doim mehr bilan ado etaman. Buning uchun ustozlarim tibbiy xizmat polkovnigi Husanjon Xudinov, iste'fodagi tibbiy xizmat podpolkovnigi Mirzoahmad Alimov, jarrohlik bo'limida uzoq yillar faoliyat yuritgan tajribali hamshira Lyubov Trotinova hamda safdosh dugonam Gulsanam Boboyevadan minnatdorman.

## FARZANDLAR

### – OILA ISTIQBOLI

Hulkarxon turmush o'rtog'i Otabek bilan uch farzandni voyaga yetkazdi. Bugun oilaning uch bilimdon malikasiga barchaning havasi keladi. Katta qizlari Azizaxon Janubiy Koreyadagi universitetda tahsil olmoqda. U ona tilimizdan tashqari rus, ingliz, turk va koreys tillarida bimalol suhbatlasha oladi. Charoxon esa bo'lajak talaba sifatida nufuzli universitetga kirish uchun astoydil tayyorgarlik ko'ryapti. U ham opasi kabi bir qator xorij tillarini o'zlashtirgan. Xonadonning kenja malikasi Elnura umumta'lim maktabining 8-sinfida o'qiyapti. Maqsadi – IT sohasini mukammal o'zlashtirish. Farzandlarini ulg'aytirishda oiladagi kattalarning o'ri zalvarli bo'lganini Hulkarxon ta'kidlab o'tdi. Darhaqiqat, ayol kishining rafiqaligi, onalik burchini chiroyli uddalab, kasbida o'rin topishida umr yo'ldoshi va ota-onalarning o'ri muhim.

– Men baxtli ayolman, – deydi Hulkarxon shu haqda so'z ketar ekan. – Avvalo, kasbimni tushunadigan turmush o'rtog'im, bilimga intiluvchan farzandlarim bor. Har

tomonlama tayanch, duogo'y qaynona-qaynotam va ota-onam bor. Mana shu mehribonlarim sabab qachon, qaysi payt bo'lmasin, xizmatga shayman. Katta jamoada, o'zim orzu qilgan jarrohlik yo'nalishida faoliyat yuritayotganimdan, Vatanimiz posbonlarining salomatligiga, bemorlikdan oyoqqa turishlariga ulush qo'shayotganimdan xursandman.

Bugun Termiz harbiy gospitalining jarrohlik bo'limi hamshirasi Hulkarxon Mingliyevaning jamoada o'z o'ri va hurmati bor. U "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga 30 yil" esdalik nishoni hamda bir qator faxriy yorliq va tashakkurnomalar sohibasi. Bir so'z ila aytganda, jarrohlik bo'limida faoliyat yuritishdek zahmatli va mas'uliyatli vazifada uzoq yillar xizmat qilib kelayotgan o'z kasbining bilimdoni, irodali Hulkarxon Mingliyevaga omad tilash asnosida uni va Qurolli Kuchlarimizda xizmat qilayotgan barcha ayollarimizni 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar ayyomi bilan muborakbod etamiz!

Zulfiya YUNUSOVA,  
"Vatanparvar"

Sherzod SHARIPOV



Sherzod SHARIPOV

## Sharaf va iftixor

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Kakaydi garnizonida joylashgan harbiy qismda yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirish hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining yaratilish va rivojlanish tarixi bilan yaqindan tanishtirishga bag'ishlangan ochiq eshiklar kuni hamda "Milliy libos – iftixor timsoli" shiori ostida harbiy-vatanparvarlik tadbiri bo'lib o'tdi.

# OLIS MANZILLARDA BAHOR NAFASI

Mudofaa vazirligining Janubiy operativ qo'mondonligi, Termiz harbiy prokuraturasi, Milliy gvardiya Surxondaryo viloyati boshqarmasi, faxriylar va yoshlar ishtirok etgan tadbirda milliy armiyamizda keyingi yillarda yuz bergan o'zgarish va yangilanishlar haqida so'z yuritildi.

– Hozirgi tahlikali zamonda vatandoshlarimizning tinchtotuv, farovon yashayotgani bilan har qancha faxrlansak arziydi, – deydi mayor Azizbek Husainov. – Mamlakatimizda bunday osuda hayotni ta'minlash uchun harbiylarga barcha qulay sharoit yaratilib, jangovar bo'linmalar

zamonaviy harbiy texnika va qurol-yarog'lar bilan ta'minlanmoqda. Bugun bo'lib o'tgan tadbir ishtirokchilariga ana shu haqda ham atroflicha ma'lumot berilgani va yoshlar harbiy texnikalar bilan yaqindan tanishgani e'tiborga sazovor bo'ldi. Chunki harbiylar hayotini o'z ko'zi bilan ko'rgan aksariyat yoshlarda sharafli kasbga qiziqish va intilish hissi uyg'onishi tabiiy.

Shuningdek, yoshlar uchun zamonaviy harbiy texnika va qurol-aslahalar ko'rgazmasi, faxriy qorovul shaxsiy tarkibining jangovar chiqishlari namoyish etildi. Yoshlar va tinchligimiz qo'riqchilari

harbiy qismdagi sharoitlar, Vatan himoyachilariga berilayotgan imtiyozlar xususida dildan suhbat qildi. Qurolli Kuchlar faxriylari xizmat davrida yuz bergan qiziqarli voqealar va Vatan himoyasining sharafli kasb ekani haqida so'zlab berdi. Jangovar harakatlarda halok bo'lgan qahramonlar yodga olindi.

Tadbirming ikkinchi qismida harbiy qismda xizmat qilayotgan yur t

posbonlari va ularning oila a'zolari yoshlarimizga o'zleri tug'ilib o'sgan viloyatning milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini hamda milliy liboslari to'g'risida ma'lumot berdi.

Milliy liboslarni kiyish nafaqat urf-odat, balki o'zligimizni namoyish etishning bir yo'lidir. Ulardagi go'zallik va ma'no xalqimiz ma'naviyatining yuksak ifodasidir.

Kichik serjant  
Davlatbek RAHMATOV,  
Termiz garnizoni



Erkin va yunon-rum kurashi

# MUDOFAA VAZIRI KUBOGI



## kimga nasib etdi?

Vatan himoyachisi – nafaqat aqlli va jasur, balki jismonan baquvvat bo'lishi ham muhim. Qudratli armiyaning asosi sog'lom, chiniqqan va irodali harbiylardir. Sport esa nafaqat inson salomatligini mustahkamlaydi, balki intizom va iroda kuchini shakllantiradi.

Harbiy xizmatchilar uchun sport bu shunchaki jismoniy mashq emas, balki jangovar tayyorgarlikning ajralmas qismi, matonat va yengilmaslik timsolidir. Qudratli qalqon kabi sport ham harbiylarning tinimsiz harakatda, ruhan va jismonan baquvvat bo'lishiga xizmat qiladi.

Mudofaa vazirligi tomonidan ilk bor tashkil etilgan Mudofaa vaziri kubogi uchun erkin va yunon-rum kurashi bo'yicha musobaqa ham ana shu maqsad yo'lidagi navbatdagi muhim qadam bo'ldi. Ushbu musobaqa harbiy xizmatchilar, oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlarini bir maydonga yig'di. Bir necha turli vazn guruhlaridagi kurashlar shiddatli va qiziqarli kechdi.

Ishtirokchilar faqat jismoniy va texnik tayyorligini ko'rsatibgina qolmay, balki Vatanga muhabbat, sadoqat va harbiy xizmatga bo'lgan mas'uliyatni ham namoyon etdi.

– Mazkur musobaqada yunon-rum kurashi bo'yicha 130 kg vazn toifasida qatnashdim va g'oliblikka erishdim, – deydi Markaziy harbiy okrugdan ishtirok etgan kichik serjant Shahzod Orziqulov. – Bu musobaqa bizga o'z kuch va mahoratimizni namoyish etish uchun yana bir katta imkoniyat bo'ldi. Musobaqa o'tkazilgan sharoit va raqobatning shiddati menga katta tajriba berdi. Ko'p narsalarni o'rgandim, ayniqsa raqiblar bilan kurashishda ishlatgan usullarimni yaxshilashga harakat qildim. Har bir harbiy sportchi nafaqat

o'zining jismoniy tayyorgarligini, balki ma'naviy ruhini ham yuqori darajada saqlashi kerak. Raqibimni to'g'ri baholash va unga qarshi strategiya tuzishdagi tajribamni sinovdan o'tkazdim. Ushbu turnir o'zimni yangicha tomondan ko'rishga yordam berdi va kelajakdagi maqsadlarimga erishish yo'lida katta motivatsiya berdi. Kelajakdagi maqsadim nafaqat harbiy xizmatda, balki sportda ham katta marralarga erishishdir.

Umumjamoa hisobida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug birinchi o'rinni egalladi va Mudofaa vaziri kubogiga ega bo'ldi. Faxrli ikkinchi o'rin Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligiga, uchinchi o'rin esa Maxsus operatsiyalar kuchlari qo'mondonligiga nasib etdi.

Ro'ziqul OCHILOV,  
"Vatanparvar"



## Mangu xotira

Haqqoniy janglarda qozondik zafar,  
Eng og'ir yo'llarni bosib o'tdik biz,  
Sanoqsiz qurbonlar berdik naqadar,  
Mardlarning shuhrati yo'qolmas beiz.

Ilyos MUSLIM (1945-yil, Germaniya).



# DNEPRNING

## mashhur qahramoni

Xalqimizning Vatan himoyasi yo'lidagi yuksak mardlik va qahramonliklari avlodlar uchun namuna va ibrat maktabidir. Xususan, Ikkinchi jahon urushida 2 millionga yaqin o'zbekistonliklar safarbar etilib, shundan 538 ming nafardan ortig'i jang maydonlarida qahramonlarcha halok bo'ldi, 158 ming nafardan ortig'i bedarak yo'qoldi.

Bu yil ham yurtimizda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuni keng nishonlanadi.

Ushbu maqolada Dnepr uchun bo'lgan janglarda ishtirok etgan urush qatnashchisi Maxash Balmamaxbetovning yorqin xotirasini yodga olishni maqsad qildik.

Maxash Balmamaxbetov 1914-yil Qoraqalpog'istonning hozirgi Qora'zak tumanida

tug'ilgan. Sovet Ittifoqi Qahramoni. U Ukraina tuprog'ini nemis-fashist bosqinchilaridan ozod qilishda mislsiz botirliklar ko'rsatdi.

Urushning uchinchi yili edi. Fashistlar sovet qo'shinlarining qaqqshatqich zarbasi ostida vaqtincha bosib olingan shahar va qishloqlarni birin-ketin tashlab, g'arbga tomon chekinib borardi. Gitlerchilarning tanlangan diviziyalari Staligradda tormor etilgandan so'ng Maxash Balmamaxbetov xizmat qilgan gvardiyachi qism hujum janglarini to'xtovsiz davom ettirib bordi. Diviziya jangchilari nihoyat, Dnepr daryosiga yaqinlashdilar.

Gvardiyachi serjant Maxash Balmamaxbetov Dnepr sohillariga yetib kelguniga qadar, hujum janglarida ko'rsatgan botirligi tillarda doston edi. U mana shu jangovar xizmatlari

uchun ikki marta "Qizil yulduz" ordeni bilan mukofotlangan.

Nihoyat, Dnepr uchun qizg'in janglar boshlanib ketdi. Bu jangda qatnashish sharafiga erishgan kishilar Maxash ismini aslo unutmaydilar.

1943-yilning kuzi, osmonni qora bulut qoplagan yomg'irli kecha edi. Qism jangchilari Dneprning o'ng sohiliga o'tish uchun buyruq kutardi. Jangchilarning tinka-madori qurishiga qaramay, daryodan tezroq o'tib, dushmanga qaqqshatqich zarba berish imkonini kutar edi. Keng va azim daryo ularni dushman gazandalaridan ajratib turardi.

Daryodan kechib o'tiladigan kuni tunda rota komandiri Balmamaxbetovni chaqirib, pulemyot "raschot" idagi Karimov, Moldagojyev, Jinamev va Islomov bilan Dneprdan o'tib, o'ng sohildagi

platsdarmni egallash va boshqa bo'linmalarning xavf-xatarsiz o'tishini ta'minlash to'g'risida buyruq berdi.

Maxash boshliq azamat jangchilar tunda qayiqda suzib borarkan, dushman narigi sohildan yorug'lantiruvchi raketalar otib turardi. Jangchilarning marraga yaqinlashib qolishganini sezgan dushman kuchlari ularga qarata o't ochadi.

Qayiqdagi jangchilardan ikkitasi yengil yarador bo'lsa-da, oldingga qarab suzishni davom ettiradilar. Nihoyat, jangchilar qirg'oqqa yetib, platsdarmni egalladilar. Pulemyotni qulay joyga o'rnatib, avtomatlarini otishga shayladilar. Hudud chakalakzor bo'lgani uchunmi yoki boshqa maqsaddami dushman askarlari ularga qarata o't ochmay qo'ydi. Ko'p o'tmay, orqadan boshqa

bo'linma jangchilari ham daryodan o'tib oldilar. Shundan keyingina dushman quturib, o'q yog'dirdi. Ikki o'rtada qattiq otishma boshlanib ketdi. Mana shu vaqtda Maxashning jangovar do'stlaridan Karimov va Moldagojyev qahramonlarcha halok bo'ldi.

Maxash do'stlari bilan birga dushman ustiga ayovsiz yurish qildi. Qirg'inbarot vaqtida Balmamaxbetov 20 fashistni qirib tashlab, 16 askar va ofitserni asir oldi. Sovet Ittifoqi Qahramoni Maxash Balmamaxbetovning jasorati ana shunday qahramonliklar bilan xotiralarda qoldi.

(Muzei fondi arxiv hujjatlari asosida tayyorlandi).

**Gulnoza USMONOVA,**  
**Qurolli Kuchlar**  
**davlat muzeyi**  
**yetakchi ilmiy xodimi**

## Jarayon



## I XALQARO

### NAMANGAN AVTOFESTIVALI

Namangan viloyatining Davlatobod tumanida Xalqaro Namangan avtofestivali o'tkazildi. Viloyat hokimligi, "Vatanparvar" tashkiloti va mutasaddi idoralar tomonidan tashkil etilgan mazkur tadbirda retro va zamonaviy avtomobillar ko'rgazmasi, avtosport va karting musobaqalari, avtomobil ta'mirlash va ehtiyot qismlarni tezkor almashtirish bo'yicha bellashuvlar hamda tyuning qilingan avtomobillar ishtirokidagi avtoparad namoyish etildi.

Respublikada ilk bor o'tkazilgan ushbu nufuzli tadbir o'zining jozibadorligi bilan viloyat aholisi va chet ellik mehmonlar yodida qoldi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti Namangan viloyati kengashi tomonidan festival doirasida o'tkazilgan karting-slam bo'yicha viloyat chempionati ekstremal sport muxlislarining olqishlariga sazovor bo'ldi.

Qizg'in bellashuvda ishtirok etgan yosh karting ishqibozlari turli to'siqlardan o'tish va tezkor harakatlanish bo'yicha g'oliblik uchun kurash olib bordi. Musobaqa natijalariga

ko'ra, 1-o'rinni Mubasher Fayzullayev, 2-o'rinni Rustam Bekmamberdiyev va 3-o'rinni Muslima Nabiyeva qo'lga kiritdi.

Tadbir davomida tashrif buyuruvchilarga "Vatanparvar" tashkilotining "Motokross", "Karting", "Triatlon", "Biatlon", "Pnevmatik quroldan o'q otish", "Raketamodel", "Aviamodel" va "Radiosport" bo'yicha sekiyalarining ko'rgazmalari namoyish etildi.

**O'zbekiston Respublikasi**  
**mudofaasiga ko'maklashuvchi**  
**"Vatanparvar" tashkiloti**  
**matbuot xizmati**

## Harbiy-vatanparvarlik



## NAVBATDAGI MASALALAR

### MUHOKAMASI

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda tashkilot markaziy apparati xodimlari, hududiy kengashlari raislari hamda davlat boshqaruvi organlari va jamoat birlashmalari vakillari ishtirok etdi.

"Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi moderatorligida o'tgan yig'ilishda ishtirokchilarga 2024-yilda tashkilot tomonidan aholi, ayniqsa yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish hamda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Jumladan, o'tgan yil tashkilot uchun mashaqqatli davr bo'lganiga qaramasdan, **3 970 ta** harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy tadbirlar o'tkazilib, ularda **389 480 nafar** aholi vakillari qamrab olishi bilan ahamiyatli bo'ldi. 2024-yilga mo'ljallangan kalendar rejaga asosan, jami **47 ta** respublika sport musobaqalari, **733 ta** viloyat va tuman musobaqalari o'tkazilib, ularda jami **21 378 nafar** sportchi ishtirok etishi ta'minlandi.

Tashkilot sportchilaridan iborat milliy terma jamoa jami **10 ta** xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etib, oldingi yillarga qaraganda muvaffaqiyatli natijalar qayd

etishdi. Xususan, ular **21 ta oltin, 25 ta kumush, 25 ta bronza** medallariga, umumiy hisobda 71 ta medalga sazovor bo'ldi.

Tashkilotning o'quv muassasalarida **oltmish mingga yaqin** fuqaro turli toifa avtomototransport vositalari haydovchiligiga o'qitildi. "Vatanparvar" tashkiloti va Migratsiya agentligi hamkorligida o'zbekistonlik fuqarolarni haydovchilik kasbiga o'qitib, ularni ixtiyoriy ravishda xorijiy davlatlarda vaqtincha ishlash uchun yuborish bo'yicha amaliy ishlar boshlab yuborilgan.

Yig'ilish davomida "O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha 2025-2026-yillarga mo'ljallangan "Maqsadli dasturi" bir ovozdan tasdiqlandi. Shuningdek, markaziy kengash hamda uning hay'ati tarkiblariga o'zgartirish kiritish bo'yicha ovoz berildi.

**Sherzod EGAMBERDIYEV,**  
**"Vatanparvar"**



# ELEKTRON URUSH NIMA?

Tinchlik va barqarorlikka tahdidlar keskinlashib borayotgan bir paytda elektron urush qobiliyatini oshirish mintaqaviy xavfsizlik uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, uchuvchisiz uchish apparatlari, dronlarning jang maydonida paydo bo'lishi harbiy sohada keskin o'zgarish yasadi. Hozircha frontdagi askarlar o'rnini texnologiyalar egallaydi, deyish uchun hali erta. Lekin bu jarayonda yuqori texnologik salohiyatga ega, zamon talablariga moslasha olgan armiyalarninggina qo'li baland kelayotgani sir emas.

Elektron urush harbiy to'qnashuvlarda dushmanning o'zaro aloqalariga xalaqit berish, signallarni ushlab qolish va dushman kuchlarining aloqani tinglashiga yo'l qo'ymaslik uchun chastotani o'zgartirish kabi keng qamrovli faoliyatni o'z ichiga oladi. Jangning bu shakli megagerstlarda o'lchangan aniq diapazon doirasida dushmanga hujum qilish yoki undan himoyalani uchun quruqlik, dengiz, havo yoki fazodan elektromagnit spektr vositasida boshqariladi. Uning uchta asosiy turi mavjud.

Elektron urushning birinchi turi elektron hujum qilish maqsadiga yo'naltirilgan, elektromagnit energiya yoki radiatsiyaga qarshi qurollardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bundan asosiy maqsad dushmanning jangchilari, inshootlari yoki qurol-aslahalarini o'z ichiga olgan jangovar vositalarini ishdan chiqarish yoki yo'q qilishdir. Bu orqali, avvalo radar yoki aloqa tizimlarida to'siqlar yaratiladi va dushmanning ma'lumot almashish qobiliyatiga xalaqit berish uchun radio uzatmalari bloklanadi yoki uning o'rniga yolg'on ma'lumotlar yuboriladi. Muayyan signallarni aniqlaydigan radiatsiyaga qarshi qurollar, raketalar yoki bombalar esa radiouzel tizimlarini to'g'ridan to'g'ri yo'q qilish uchun ishlatiladi.

“KO'RINMAS URUSH” deya ta'riflanadigan elektron urushning ikkinchi turi elektron himoya jangovar qobiliyatga ta'sir qiluvchi hujumlardan shaxsiy tarkib, obyektlar va texnikani himoya qilish uchun amalga oshiriladigan harakat yoki qarshi choradir. Bu elektron urushda o'zini o'zi himoya qilish taktikasi, havo orqali kelishi mumkin bo'lgan tahdidlarini modellashtirishni nazarda tutadi.

Elektron urushning uchinchi va oxirgi turi – elektron urushni qo'llab-quvvatlash operativ qo'mondon yoki harbiy operator tomonidan elektromagnit energiya manbalarini aniqlash, topish yoki lokalizatsiya qilish, to'xtatish bo'yicha amalga oshiriladigan harakatlarni o'z ichiga oladi. Bunda razvedka, kuzatuv orqali nishon qo'lga kiritiladi. Jang maydonidagi komandirlar uchun tahdidlarni darhol aniqlashtirib, radiopriyomniklar, radarlar va mobil telefonlar kabi manbalardan olingan uzatmalarni tahlil qiladi. Bunda aloqa razvedkasi va tegishli asbob-uskunalar signallari yordamida chastota o'tkazish polosasi o'lchanadi. Mazkur jarayonda bir vaqtning o'zida boshqa strategik maqsadlar uchun taktik ma'lumotlar to'planishi mumkin.

## “KO'RINMAS URUSH”: TARIXI VA BUGUNI

Elektron urushning tarixiy ko'rinishi XX asrga borib taqaladi. Ikkinchi jahon urushi davrida ikkala tomon ham elektron urush usulidan qisman foydalangan. Misol uchun, bombardimonchilarni nishonlarga va bazalarga yo'naltiruvchi navigatsiya harakat tizimlarini chalkashtirish va buzish uchun ishlatilgan.

ELEKTRON URUSH jang maydonidagi aloqa texnologiyasi bilan birga takomillashdi. Vyetnam urushida elektron urush harbiy havo kuchlari missiyalari va bombardimonlarni amalga oshirgan samolyotlar yordamida sodir bo'ldi.

Quruqlikdagi ko'p funksiyali elektron urush tizimi sun'iy yo'ldoshga asoslangan navigatsiya signallari bilan birga mobil sun'iy yo'ldosh aloqalarini bostirish uchun qo'llangan.

## DRONLAR VA ANTIDRONLAR JANGI

Eslatish o'rinliki, elektron urush kiberurushdan farq qiladi, chunki birinchisi qurilma va signallarga, ikkinchisi esa dasturiy ta'minot va

ma'lumotlarga qaratilgan. Elektron urush asosan dushman aloqalari va radar signallarini aniqlash, tutib olish va to'xtatish uchun radioto'lqinlar kabi elektromagnit kuchlardan foydalanishga e'tibor qaratadi. U ko'pincha raqib dronlarga qarshi ularning navigatsiyasini izdan chiqarish uchun qo'llaniladi. Kiberurush kompyuter tizimlari, tarmoqlari va raqamli infratuzilmaga qaratilgan hujumlarni anglatadi.

Dron va operator o'rtasidagi aloqa turli chastotalar orqali bog'lanadi. Elektron urush tizimlari turli usullar bilan ta'sir ko'rsatib, bu ikkisini bir-biridan uzib qo'yadi. Ulardan eng keng tarqalgani jamming, ya'ni signalni “bo'g'ish” bo'lib, dron ishlayotgan chastotaga shovqinli signal (*interferensiya*) yuboriladi. Qolaversa, chastota spektrini to'sish va GPS signallarini bostirish kabi usullar ham faol qo'llaniladi.

Hozirgi vaqtda yo'qori tezlik, aniqlik, kichik hajm va miqdor omillari sabab kvadrokopterlar har ikki tomonni ham eng ko'p tashvishga solayotgan tahdid bo'lib turibdi. Arzonligi bois bu turdagi dronlar piyoda kuchlar aslahasida joy olgan muhim qurolga aylandi. “Reuters” axborot agentligi xabariga ko'ra, Xitoyda bir yilda 4 million uchuvchisiz uchish vositasi ishlab chiqariladi. Ushbu ko'rsatkich xudkush dronlar, bomberlar, razvedkachi hamda uzoq masofaga mo'ljallangan zarbdor dronlarni ham o'z ichiga oladi.

## ELEKTRON URUSH OFITSERLARI TAYYORLANMOQDA

AQSh Markaziy qo'mondonligi tomonidan Yaqin Sharq, Janubiy va Markaziy Osiyo mintaqasi uchun mo'ljallab har chorakda chop etiladigan “Unipath” jurnalining 2025-yilgi 13-sonida ma'lum qilinishicha, Saudiya Arabistonida elektron urush imkoniyatlarini kuchaytirish maqsadida Qirollik harbiy havo kuchlarining 13 nafar zobiti 2024-yil mart oyida Texasning San-Antonio qo'shma bazasida elektron urush bo'yicha 3,5 yillik tayyorgarlik dasturi mashg'ulotlarini yakunlagan. Dastur 4 400 soatlik ta'limni o'z ichiga olib, to'rt bosqich, 34 ta kurs hamda ko'plab simulyatsiya va mashqlardan iborat.

O'quvlar yakunida saudiyalik zobitlar “Elektron urush ofitseri” sertifikatlarini qo'lga kiritdi. AQSh Harbiy havo kuchlari ushbu talabalar dunyodagi eng yaxshi tayyorlangan elektron urush va kiber mutaxassislar safiga kirganini ta'kidlaydi. Xususan, AQSh Harbiy havo kuchlari xavfsizlikka ko'maklashish va o'quv eskadriyasi qo'mondoni polkovnik Keysi Pombert bitiruvchilarni Saudiya Arabistoni Qirollik harbiy havo kuchlarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus ishlab chiqilgan noyob o'quv kursining ishtirokchilari sifatida e'tirof etgan. Dunyoning boshqa mamlakatlarida ham elektron urush ofitserlarini tayyorlashga allaqachon tadorik boshlagani sir emas.

Elektron urush harbiy operatsiyalarning ajralmas qismidir. U mamlakatlar harbiy missiyasiga ta'sir o'tkazib, hatto jangovar kuchning muhim bo'g'iniga aylanoqda. Kelajakda elektron urush yanada muhim ahamiyat kasb etishi tayin, chunki zamonaviy dunyo armiyalari tobora ilg'or, ishonchli va texnologik qurilmalarga moslashib bormoqda.

**Katta leytenant  
Dilshod RO'ZIQULOV tayyorladi.**



## Balli, ayollar!

## Yangi O'zbekistonning vatanparvar ayollari

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan ilk bor tizimda xizmat qilib kelayotgan xotin-qizlar o'rtasida "Yangi O'zbekistonning vatanparvar ayollari" shiori ostida "Balli, ayollar!" ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Unda markaziy studiyadan Bosh prokuratura va O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi mahkamasi xodimalari, Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiya vakillari, joylardagi studiyalardan hududiy harbiy prokuratura xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirni O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuratori vazifasini bajaruvchi O. Xolboyev kirish so'zi bilan ochib berdi.

Tanlovda harbiy prokuratura ayollari "Men baxtli ayolman!", "Mohir bekajon", "Darts", "Ayol – go'zallik timsoli", "Uddaburon ayol" va "Bahribayt" shartlari bo'yicha o'zaro bellashdi.

Har bir shart natijasi hakamlar hay'ati tomonidan baholab borildi.

Tadbir yakunida Bosh prokuror o'rinbosari S. Artikova ishtirokchilarni bayram bilan tabriklab, yurtimizda xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan e'tibor, g'amxo'rlik, yaratib berilgan sharoit va keng imkoniyatlar haqida alohida to'xtaldi. Bugungi tanlov ham bu boradagi faoliyatning amaliy bir ko'rinishi ekanini alohida ta'kidlab, g'olib va sovrindorlarga maxsus diplom va esdalik sovg'alarni topshirdi.

Shuningdek, Bosh prokuraturada faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar Harbiy prokuratura muzeyi va yaratilgan sharoitlar bilan tanishdilar.

Mudofaa vazirligi Markaziy ashula va raqs ansamblining chiqishlari barchaga bayramona ruh bag'ishladi.

**Adliya mayori Sirojiddin CHORIYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi bo'lim katta harbiy prokurori

## Profilaktika

## Korrupsiya – TARAQQIYOT KUSHANDASI

Termiz harbiy prokuraturasi tomonidan harbiy tuzilmalarning birida "Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari" profilaktik tadbir o'tkazildi.

Unda ta'kidlanganidek, shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish korrupsiya hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari sanaladi.

Shuningdek, muloqotda korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar va ular uchun nazarda tutilgan javobgarlik masalalari haqida tushunchalar berildi.

Tadbirdan so'ng shaxsiy qabul tashkil etildi.

**Adliya podpolkovnigi A'zam ALMARDONOV,**  
Termiz harbiy prokurorining o'rinbosari

## Muloqot

Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan Shayxontohur tumani qo'riqlash bo'limi shaxsiy tarkibi ishtirokida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbir o'tkazildi.

## Huquqbuzarliklarning oldini olishga e'tibor

Tadbir davomida huquqbuzarliklar, jumladan firibgarlik, davlat mulkini talon-toroj qilganlik hamda onlayn qimor uchun qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlik va uning huquqiy oqibatlarini yuzasidan tushunchalar berildi.

Shuningdek, Toshkent shahri IIBB YHXB bilan hamkorlikda Milliy gvardiyaga qarashli harbiy qismlarning birida shaxsiy tarkib ishtirokida "Yo'l-transport hodisalari va uning mudhish oqibatlarini" mavzusida muloqot o'tkazildi.

Unda yo'l-transport hodisalari va uning huquqiy oqibatlarini hamda Jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar, ya'ni transport vositalarini mast holatda boshqarganlik uchun jinoiy javobgarlikning mohiyati haqida tushuntirishlar berildi.

Bu kabi tadbirlar harbiy qism va muassasalarda davom ettirilmoqda.

**Adliya podpolkovnigi Nodir ALIMOV,**  
Toshkent harbiy prokurorining katta yordamchisi

## Sayyor qabul

## Murojaatlar yechim topmoqda

Xalq bilan bevosita muloqot qilish – mavjud muammolarni o'rganish va tezkor hal etish borasida muhim omillardan hisoblanadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan Qurolli Kuchlar vazirligi va idoralari bilan hamkorlikda mamlakatimizning olis hududlarida ommaviy sayyor qabullar o'tkazib kelinmoqda.


Ularning navbatdagisi Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida tashkil etildi. Unda Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari va xodimlari, ularning oila a'zolari, pensionerlar va yoshlar tinglandi.

Jarayonda jami 57 ta murojaatdan 16 tasi qanoatlantirildi, 26 tasi yuzasidan tushuntirish berildi, 15 tasining ijrosi nazoratga olindi.

**Adliya podpolkovnigi Sardor YORMATOV,**  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurorining yordamchisi

## E'tirof

Andijon shahridagi Ixtisoslashtirilgan bolalar va o'smirlar sport maktabida o'tkazilgan "Usmanov Kombat Systems" bo'yicha bolalar, yoshlar, o'smirlar va kattalar o'rtasida qo'ljangi bo'yicha O'zbekiston kubogi musobaqasida ishtirok etgan Mudofaa vazirligiga qarashli Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litsey o'quvchisi Dilshodbek Xalimov chempion bo'ldi.



## HARBIY LITSEY O'QUVCHISI O'ZBEKISTON CHEMPIONI

Musobaqa ful kontakt, nokdaun va layt kontakt yo'nalishlari bo'yicha yuzlab sportga mehr qo'ygan yoshlar, o'smirlar va yoshi kattalarni jamlab, mamlakatimizda

bolalar sportini rivojlantirishga hissa qo'shayotgani bilan ahamiyatlidir.

14-16 yoshdagilar o'rtasidagi 65 kg vazn toifasida ishtirok etib, layt

kontakt yo'nalishida tengsiz ekanini isbotlagan Dilshodbek 2022-yilda ham Sirdaryoda o'tkazilgan "Usmanov Kombat Systems" O'zbekiston kubogi va jahon chempionati saralash musobaqasida 50 kg vaznlar o'rtasida shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy olgan edi.

Quvonarlisi, litsey o'quvchisi Dilshodbek Xalimov harbiy sulola davomchisi bo'lib, Qurolli Kuchlar akademiyasining Jismoniy tayyorgarlik va sport kafedrasi o'qituvchisi podpolkovnik Shaxriyor Iskandarovning farzandi bo'ladi. O'zbekiston kubogida qo'lga kiritilgan g'alaba Dilshodbekka yangi imkoniyatlar eshigini ochib, shu yilning aprel oyida Taylandda o'tkaziladigan jahon chempionatiga yo'llanma olishiga zamin yaratdi.

G'alabali yurishlari bilan katta sport olamiga odimlayotgan yurt himoyachisining farzandi Dilshodbek o'z jamoasi, ya'ni Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy akademik litsey shaxsiy tarkibi tomonidan munosib kutib olindi. Uning sharafiga tadbir tashkil etilib, yutuqlari e'tirof etildi.

**Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati**

## Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Qoraqalpog'iston Respublikasi kengashi tasarrufidagi To'rtko'l tumani o'quv sport-texnika klubida yoshlar bandligini ta'minlash, ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash, harbiy-vatanparvarlik targ'iboti hamda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish borasida tizimli ishlar bajarilmoqda.



# MUNOSIB MEHNAT SAMARASI



Xususan, tumandagi mavjud umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarini harbiy kasbga yo'naltirish, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir va ochiq eshiklar kuni o'tkazildi. Bundan tashqari, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan o'quvchi-yoshlar o'rtasida turli mavzularda ko'rik-tanlovlar, sportning texnik va amaliy turlari bo'yicha sport musobaqalari hamda yo'l harakati targ'iboti bo'yicha avtotashviqot karvoni tashkil etildi.

– Ushbu muhim sana munosabati bilan o'tkazilayotgan uchrashuv, tadbirlarda keng jamoatchilik vakillari, harbiy xizmatchilar hamda faxriylar faol ishtirok etmoqda, – deydi O'STK boshlig'i Xayrulla Nuriyev. – Tuman hokimligi, mudofaa, ichki ishlar, Milliy gvardiya, maktab va maktabgacha ta'lim bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etilgan bunday tadbirlarda yoshlarning keksa avlod vakillari bilan uchrashuvlari o'ziga xos an'anaga aylangan.

Bundan tashqari, klubda sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirishga ham alohida

e'tibor qaratilmoqda. Natijada klub terma jamoasi shakllantirilib, ularning nufuzli musobaqalarda ishtiroki ta'minlanayapti. Masalan, sportning raketamodel turi bo'yicha o'tkazilayotgan xalqaro musobaqalarda ishtirok etgan sportchilardan Rashid Koshayev hamda Sergey Miller aynan "Vatanparvar" tashkiloti To'rtko'l tumani o'quv sport-texnika klubi a'zolari ekanidan haqli ravishda faxrlanamiz. O'tgan yili Qozog'iston Respublikasining Boykonur shahrida o'tkazilgan raketamodel sport turi bo'yicha "Kubok Korkit-Ata – 2024" jahon chempionati musobaqasida ishtirok etgan sportchimiz Rashid Koshayev S-7 modelida faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Albatta, bunday yutuqlar tashkilotimizdagi murabbiy va to'garak yetakchilarining, qolaversa, klub a'zolarining ham mashaqqatli mehnatlari samarasidir.

Ayni paytda klubda yoshlar sportning texnik va amaliy turlaridan "Havo miltig'idan o'q otish", "Raketamodel", "Yozgi biatlon" kabi muhim turlari bilan shug'ullanib kelmoqdalar. Shu kunlarda seksiyalardagi ishtirokchilar soni 50 nafardan ziyodroq yoshni tashkil etmoqda.

Shuningdek, mazkur o'quv sport-texnika klubida belgilangan

o'quv dasturlari ijrosini ta'minlash maqsadida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada "B", "BC", "C" toifali haydovchilar

tayyorlash va qayta tayyorlash jarayoni zamon talablari asosida olib borilmoqda.

**Akbar ALLAMURODOV**



# Yoshlar kamolotiga E'TIBOR QARATILMOQDA

**Yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish, ular qalbida harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish har jihatdan ustuvor ahamiyat kasb etadigan masalalardan biridir. Jumladan, bugungi kunda ayni maqsadga xizmat qiluvchi chora-tadbirlarning izchil ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Shovot tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi tomonidan ham qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.**



Xususan, bunday ishlar ko'lamini yanada oshirish maqsadida harbiy-vatanparvarlik targ'iboti faol tarzda olib borilmoqda. – Bu borada yoshlarni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etgan holda ko'rgazmali tadbirlar va sport musobaqalarini tashkil etish muhim jarayonlardan biridir, – deydi O'STK boshlig'i Rahimjon Tangirberdiyev.

tanlovlar hamda sport musobaqalari tashkil etildi. Chunonchi, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish maqsadida tumandagi 54 ta umumta'lim maktabi beshta hududga bo'linib, "Havo miltig'idan o'q otish" bo'yicha musobaqalar tashkil etildi.

O'tkazilayotgan bunday bellashuvlardan ko'rinib turibdiki,

amaliy turlarini rivojlantirishga ham muhim e'tibor qaratilyapti. Shu kunlarda klub qoshida "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Duatlon" kabi seksiyalarda 36 nafar yosh sportchi muntazam shug'ullanmoqda. O'z navbatida klub a'zolari tashkilot nufuzining yuksalishida o'zlarining munosib hissasini qo'shmoqda. Masalan,

Pnevmatik quroldan o'q otish sporti bo'yicha o'tkazilgan Xorazm viloyati kubogining 1-bosqich musobaqasida ishtirok etgan shovotlik merganlar umumjamo'a hisobida faxrli 2-o'rinni egallaganligi ham fikrimiz isbotidir.

**Akbar ALI**



– Shu bois klub jamoasi tumandagi hamkor tashkilotlar bilan birgalikda turli ma'naviy-ma'rifiy hamda sport tadbirlarini o'tkazmoqda. Mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan "Vatanparvarlik oyligi" davomida tashkil etilgan tadbirlar shular jumlasidandir. Unda tuman hokimligi, mudofaa ishlari, maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari, Yoshlar ishlari agentligi, harbiy xizmatchilar hamda tumandagi 1-, 23-, 27-, 28- 41- va 52- umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Tadbirda yoshlarning keksa avlod vakillari bilan uchrashuvlari, davra suhbatlari, harbiy xizmatchilar va sportchi yoshlarning ko'rgazmali chiqishlari barchada katta taassurot qoldirdi. O'z navbatida bu kabi tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yoshlarning ma'naviy kamolotida muhim o'rin tutishi, shubhasiz.

Shuningdek, Navro'z umumxalq bayrami munosabati bilan ham o'quvchi-yoshlar o'rtasida ko'rik-

O'STKda yoshlarning nafaqat texnik jihatdan, balki ma'naviy va jismoniy tomondan ham sog'lom bo'lishlariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Ayni paytda klubda haydovchilar tayyorlash borasida ham yaxshi natijalarga erishilmoqda. Xususan, bo'lajak haydovchilarning malakasini oshirish maqsadida barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Avtomobillar parki yangilanmoqda. Bunday mavjud sharoitlar xodimlarning samarali mehnat qilishlarida hamda "A", "B", "BC", "BE", "CE" va "D" toifali haydovchilar tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bundan tashqari, klubda sportning texnik va

*Fursatdan foydalanib, "Vatanparvar" tashkiloti Shovot tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi mo'tabar onaxonlar, jajji qizaloqlar, aziz opa-singillarimizni, tashkilotimizda hamda mamlakatimiz mudofaa tizimida fidokorona mehnat qilayotgan barcha ayollarni 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan samimiy tabriklaydi. Qalbingizdagi barcha ezgu tilaklaringiz ijobat, hayotingiz quvonch va shadlikka to'la bo'lsin!*

## Bilasizmi?

“Ta’lim to’g’risida”gi qonunning 51-moddasiga muvofiq, voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:



## Maktab o’quvchilari ota-onalarining MAJBURIYATIGA NIMALAR KIRADI

- o’z bolalarini insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash;

- bolalarining umumiy o’rta, o’rta maxsus ta’lim yoki boshlang’ich professional ta’lim olishini ta’minlash;

- bolalarining o’quv mashg’ulotlariga qatnashishini ta’minlash va o’zlashtirishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- o’z bolalarining intellektual, ma’naviy va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- ta’lim tashkilotining ta’lim-tarbiya jarayonini tartibga soluvchi ichki tartib-qoidalariga rioya etish;

- jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shu jumladan sudda maxsus vakolatlarsiz o’z bolalarining ta’lim sohasidagi huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

- ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish;

- voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari zimmasida qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo’lishi mumkin;

- ota-onalar yoki ularning o’rmini bosuvchi shaxslar tomonidan voyaga yetmagan bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmasligi Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksning 47-moddasiga muvofiq, bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan (375 000 so’m) besh baravarigacha (1 875 000 so’m) miqdorda jarima solishga sabab bo’ladi;

- ushbu modda bo’yicha Milliy gvardiya (*inspektor-psixolog*) va Ichki ishlar vazirligining (*profilaktika inspektori*) tegishli shaxsiy tarkibi tomonidan ma’muriy bayonnomalar tuziladi va tegishli jarimalar belgilanadi.

Manba: “Harbiy yurist” telegram kanali



Atamalar komissiyasining ishchi kengashi – O‘zbekiston fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti olimlari tomonidan bir qancha variantlar ko‘rib chiqilgan. Bu yakuniy variant emas, ishchi organ taqdim etilayotgan atamalarning milliy muqobillari bo‘yicha boshqa fikr va mulohazalarni ham eshitishga tayyor.

Hozircha 30 ta atamaning o‘zbekcha muqobili taklif etilmoqda:

Aysberg – muztog‘  
 Bruschatka – yo‘lg‘isht  
 Diskussiya – bahs, munozara  
 Zona – hudud  
 Instrument – ish quroli  
 Intensiv – jadal  
 Kamera – bo‘lma  
 Konstruksiya – tuzilma  
 Koordinator – muvofiqshiruvchi  
 Koridor – yo‘lak  
 Lider – yo‘lboshchi, yetakchi  
 Marshrut – yo‘nalish  
 Progress, progressiv – ilg‘or, rivojlanish  
 Dostavka – yetkazish  
 Probeg – yurim  
 Set (*ovqatlar seti bo‘yicha*) – to‘plam  
 Oprava – ko‘zoynak bandi  
 Polik – to‘shama  
 Balansirovka – muvozanatlashtirish  
 Vnedorojnik – yo‘ltanlamas  
 Chelenj – chorlov  
 Navigator – yo‘llagich  
 Selfi – o‘zchekim  
 Svetofor – yo‘lchiroq  
 Eksploatatsiya – foydalanish  
 Aksiya – yalpi harakat  
 Kuler – suvlik  
 Keshbek – hadya-qaytim  
 Poverbank – kuchlantirgich  
 Karving – meva bezakchiligi

Manba: Xushnubek.uz

@Vatanparvargazetasi\_bot  
 “Vatanparvar” birlashgan tahririyati bilan bog‘lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR



MUASSIS  
 O‘ZBEKISTON  
 RESPUBLIKASI  
 MUDOFAA  
 VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:  
 general-mayor Hamdam Qarshiyev  
 polkovnik Otabek Yuldashev  
 polkovnik Alisher Boboxonov  
 Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – “Vatanparvar” birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:  
 podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Telefonlar:  
 kotibiyat: 55 511-25-90  
 buxgalteriya: 55 511-25-76  
 yuridik bo‘lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov  
 Sahifalovchi: Begali Eshonqulov  
 Musahhah: Sayyora Meliqo‘ziyeva

Buyurtma: V-5913  
 Hajmi: 6 bosma taboq  
 Bichimi: A3  
 Adadi: 33 408 nusxa  
 Bosishga topshirish vaqti: 14:00  
 Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “O‘zbekiston” NMIU mas‘ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko‘rsatkichi: 114.  
 Bahosi: kelishilgan narxda.

“O‘zbekiston” nashriyat-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri Olmazor tumani Sag‘bon ko‘chasi, 382-uy.

t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
 t.me/mudofaavazirligi

www.mv-vatanparvar.uz  
 vatanparvar-bt@uamail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya